

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI
ABDULLA QODIRIY NOMLI JIZZAX DAVLAT
KASB-HUNAR INSTITUTI
KASB-HUNAR-PSIXOLOGIYA FAKULTETI
“KASB-HUNAR VA PSIXOLOGIYA” KAFEDRASI

“Himoya qilishga ruxsat beraman”
Kasb-hunar-psixologiya fakulteti
dekani _____ prof. Meliyev X.A.
“ _____ ” _____ 2013y.

51409000 – Kasb-hunar – psixologiya yo'nalishi bo'yicha bakalavr
darajasini olish uchun

“O'qituvchi faoliyatida zamonaviy ta'limning o'rni”
mavzusida bajarilgan

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Bajaruvchi: Bolbekova Nargiza
Ilmiy raxbar: L.To'raqulov

Ishni himoyaga tavsiya etaman
L.To'raqulov _____
(ilmiy rahbar ismi va sharifi) (imzo)

BMI “Kasb-hunar va psixologiya”
kafedra _____ sonli yig'ilish qarori bilan
(_____, _____ 2014 y) himoyaga
tavsiya etilgan

Kafedra mudiri: p.f.n. Alikulova
M.M.....
(ismi va sharifi) (imzo)

Jizzax – 2014

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
--------------------	----------

I BOB. BO'LAJAK O'QITUVCHI FAOLIYATIDA TA'LIMiy INNOVASIYALAR

1.1. Ta'limiy innovasiyalar va ularning o'ziga xosliklari.....	8
--	---

1.2. Pedagogik texnologiya nazariyasining umumiy asoslari.....	16
--	----

II BOB. O'RTA MAXSUS KASB HUNAR KOLLEJLARIDA ZAMONAVIT TA'LIMNING AHAMIYATI

2.1. Kasb-hunar kolleji o'quvchilarining mustaqil fikrlashini rivojlantirishda ta'limiy innovasiyalardan foydalanishda o'qituvchining roli.....	21
---	----

2.2. Kasb-hunar kolleji o'quvchilarining mustaqil fikrlashini rivojlantirishda ta'limiy innovasiyalardan foydalanishga doir tajriba-sinov ishlari mazmuni va natijalari.....	37
--	----

XULOSA.....	48
--------------------	-----------

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI	50
---	-----------

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Hozirgi kunda ijtimoiy-iqtisodiy hayotimizdagi o'zgarishlar o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi tizimiga, kichik mutaxassislarni tayyorlash sifatiga yuksak talablar qo'ymokda. Chunki bugungi kunda o'rta maxsus kasb-hunar ta'limiga jamiyatning eng asosiy ijtimoiy-iqtisodiy, intellektual va ma'naviy rivojlanish omili sifatida e'tibor qaratilmokda. Ana shu sababli mazkur ta'lim muassasalari jadallik bilan rivojlanish tavsifiga ega bo'lishi, o'sib kelayotgan yosh avlodni ijtimoiy hayotga muvaffaqiyatli tayyorlash, yangi ma'naviy-ma'rifiy va ijtimoiy-iqtisodiy talablarga doir mo'ljalni to'g'ri tanlay olishga yo'naltirilgan tarzda tashkil etilishi lozim. Bundan tashqari o'rta maxsus kasb-hunar ta'limining hozirgi kundagi rivojlanishiga bir qancha global omillar o'z ta'sirini ko'rsatmokda. Bunday global omillar sirasiga quyidagilarni kiritish mumkin:

- ta'lim olishga nisbatan ommaviy intilish;
- jamiyatda yangidan-yangi bilim sohalarining shakllanishi, bu esa o'zida muntazam ravishdagi fundamental ta'limning yangilanishi va to'ldirilishini talab qiladi, sababi jamiyat va texnologiyaning rivojlanish dinamikasi jadallik bilan rivojlanib ketmokda;
- jamiyat ehtiyojlarining va o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi tizimiga tegishli bo'lgan talablar - bilim olishning mazmun-mohiyati, tuzilishi, shakl va metodlarning xilma-xilligi;
- davlat tomonidan ta'limni ma'muriy boshqaruvining liberallasuvi;
- innovasion ta'lim texnologiyalarining rivojlanishi;
- ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarning ta'lim xizmatlari bozori internasionallasuvi bilan bog'liq holdagi globallasuvi va boshqalar¹.

¹ Sm.: Inoyatov U.I. Teoreticheskiye i organizacionno-metodicheskiye osnov1 upravleniya i kontrolya kachestva obrazovaniya prof. kolledje: Avtoref.diss... dok.ped.nauk-T.: 2004

O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tizimiga kiruvchi kasb-hunar kollejlari o'quvchilarning kasb-hunarga moyilligi, bilim va ko'nikmalarini chuqur rivojlantirish, tanlab olingan kasb-hunar bo'yicha bir yoki bir necha ixtisosni egallash imkonini beradi. Kasb-hunar kollejlari ham ana shunday turdagi ta'lim muassasalari qatoriga kiradi. Kasb-hunar kollejlarida "kuni uzaytirilgan guruh tarbiyachisi", "boshlangich sinflarda tasviriy san'at va mehnat tarbiyasi rahbari", "tarbiyaviy ishlar katta yetakchisi" kasblari bo'yicha mutaxassislar tayyorlanadi.

Mazkur yo'nalishda mutaxassislar tayyorlashga qo'yiladigan eng muhim mezonlardan biri bo'lajak pedagoglarning mustaqil, erkin fikrlay olish ko'nikma va malakalarini rivojlantirishdir.

Mustaqil fikrli, yuksak insoniy va kasbiy fazilatlariga ega mutaxassislargina jamiyatning intellektual salohiyatini oshirishga xizmat qila oladilar. Ana shu jihatdan kasb-hunar kolleji o'quvchilarining mustaqil fikrlashini rivojlantirish, mazkur jarayonda ta'limiy innovatsiyalardan foydalanish yo'llarini izlab topish muhim muammo sifatida alohida ahamiyat kasb etadi.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Ta'lim-tarbiya jarayonida ta'lim oluvchilarning mustaqil fikrlashini shakllantirish hamma zamonlarda ham dolzarb masala bo'lib kelgan.

Qadimgi va o'rta asr Sharq va Yevropa mutafakkirlari ta'lim jarayonida bola o'z fikriga ega bo'lishi lozimligini juda ko'p ta'kidlashgan. Aristotel, Suqrot, Muso al-Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy va boshqa ko'pgina olimlar mustaqil fikrlay olishga shaxs rivojining asosiy xususiyati sifatida qarashgan.

Faylasuf olimlardan J.Tulenov, I.Karimov, V.Alimasov, A.Erkayev, M.Lipman, G.Metyuz kabilar mustaqil fikrlashning falsafiy talqiniga e'tibor qaratganlar. Psixolog olimlardan A.N.Leontev, N.F.Talgzina, G.I.IDukina, M.G.Davletshin, E.G'oziyev, V.M.Karimova, R.I.Sunnatova, Z.T.Nishonova va boshqalar muammoning psixologik jihatlari haqida fikr bildirganlar.

Pedagog olimlardan Yu.K.Babanskiy, M.I.Maxmutov, I.F.Xarlamov, P.N.Pidkasistsh, T.I.Shamova, M.S.Nuritdinova, O.Musurmonova, S.Nishonova, U.Mahkamov, Sh.Abdullayeva, B.X.Xodjayev kabilarning asarlarida o'quvchilarning mustaqil fikrlashini shakllantirish masalasi umumiy tarzda bayon etilgan.

Ta'lim jarayoniga innovasiyalarni joriy etish masalasi R.H.Djurayev, S.T.Turg'unov, J.G'.Yo'ldoshev, R.Sh.Axliddinov, Sh.Qurbonov, F.R.Yuzlikayev, U.I.Inoyatov, N.Erkaboyeva, O.L.Nazarova, M.Jumaniyozova, N.Mamadov, B.Xodjayev, Sh.Zufarovlar tomonidan tadqiq etilgan.

Biroq ta'limiy innovasiyalar vositasida kasb-hunar kolleji o'quvchilarining mustaqil fikrlashini rivojlantirish masalasi alohida tadqiq etilmagan. Ana shu sababli biz bitiruv malakaviy ishimiz mavzusini "Kasb-hunar kolleji o'quvchilarining mustaqil fikrlashini rivojlantirishda ta'limiy innovasiyalardan foydalanish" deb nomladik.

Tadqiqotning maqsadi - kasb-hunar kolleji o'quvchilarining mustaqil fikrlashini rivojlantirishda ta'limiy innovasiyalardan foydalanish yo'llarini aniqlash hamda ularni amaliyotga tatbiq etishga doir ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning vazifalari:

1. Mavzuga oid ilmiy-pedagogik, metodik manbalarni o'rganish asosida ta'limiy innovasiyalar va ularning o'ziga xosliklarini ochib berish.
2. Ta'limiy innovasiyalar tasnifini aniqlashtirish.
3. Kasb-hunar kolleji o'quvchilarining mustaqil fikrlashini rivojlantirishda ta'limiy innovasiyalardan foydalanish yo'llarini tizimlashtirish.
4. Kasb-hunar kolleji o'quvchilarining mustaqil fikrlashini rivojlantirishda ta'limiy innovasiyalardan foydalanishga doir ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqot obyekti sifatida kasb-hunar kolleji o'quvchilarining mustaqil fikrlashini rivojlantirish jarayoni tanlab olindi.

Tadqiqot predmeti - kasb-hunar kolleji o'quvchilarining mustaqil fikrlashini rivojlantirishda ta'limiy innovasiyalardan foydalanish mazmuni va yo'llari.

Tadqiqotning ilmiy farazi. Agar:

- ta'limiy innovasiyalar va ularning o'ziga xosliklari ochib berilsa;
- ta'limiy innovasiyalar tasnifi aniqlashtirilsa;

kasb-hunar kolleji o'quvchilarining mustaqil fikrlashini rivojlantirishda ta'limiy innovasiyalardan foydalanish yo'llari ko'rsatib berilsa;

- kasb-hunar kolleji o'quvchilarining mustaqil fikrlashini rivojlantirishda ta'limiy innovasiyalardan foydalanishga doir ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqilsa, mazkur jarayonning samaradorligi ortadi.

Himoyaga olib chiqilayotgan asosiy holatlar:

1. Ta'limiy innovasiyalar va ularning o'ziga xosliklari.

2. Ta'limiy innovasiyalar tasnifi.

3. Kasb-hunar kolleji o'quvchilarining mustaqil fikrlashini rivojlantirishda ta'limiy innovasiyalardan foydalanish yo'llari.

3. Kasb-hunar kolleji o'quvchilarining mustaqil fikrlashini rivojlantirishda ta'limiy innovasiyalardan foydalanishga doir ilmiy-metodik tavsiyalar.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi.

1. Kasb-hunar kolleji o'quvchilarining mustaqil fikrlashini rivojlantirishda ta'limiy innovasiyalardan foydalanish yo'llari tizimlashtirildi.

2. Kasb-hunar kolleji o'quvchilarining mustaqil fikrlashini rivojlantirishda ta'limiy innovasiyalardan foydalanishga doir ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqildi.

Tadqiqot metodlari: nazariy tahlil, pedagogik kuzatish, anketa, test, so'rovnoma, pedagogik eksperiment.

Tadqiqotning metodologik asosi: Uzbekiston Respublikasi Konstitusiyasi, Uzbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi", Uzbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning asarlaridagi ta'lim oluvchilarda mustaqil fikrlashni shakllantirishga doir g'oyalar, o'quvchi shaxsini shakllantirishga doir qadriyatli yondashuvlar, pedagogik innovatika hamda innovation menejment qonuniyat va tamoyillari.

Tadqiqotning ilmiy-amaliy ahamiyati: tadqiqot natijasida kasb-hunar fani kasb-hunar kolleji o'quvchilarining mustaqil fikrlashini rivojlantirishda ta'limiy innovasiyalardan foydalanishga doir texnologik ishlanmalarga ega bo'ladi. Shuningdek, kasb-hunar fani ta'limiy innovasiyalar va ularning tasnifiga doir materiallar bilan boyitiladi.

Tadqiqot natijalaridan kasb-hunar sohasida faoliyat yurituvchi mutaxassislar, kasb-hunar kolleji o'qituvchilari, metodystlar, talabalar foydalanishlari mumkin.

Ishning tuzilishi. BMI ikki bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan iborat.

I BOB. BO'LAJAK O'QITUVCHI FAOLIYATIDA TA'LIMIY INNOVASIYALAR

1.1. Ta'limiy innovasiyalar va ularning o'ziga xosliklari

Mamlakatimizda demokratik islohatlar tufayli taraqqiyotning barcha sohalarida jadal rivojlanib borayotgan yurtimizda yosh avlodning bilim darajasini jahon andozalari talablariga javob beradigan, fan-texnika yangiliklaridan xabardor, mustaqil fikrlay oladigan, hayotga dadillik bilan kirisha oladigan, tadbirkor, ma'naviy jihatdan barkamol qilib voyaga etkazish dolzarb vazifalardan hisoblanadi. Bu esa, avvalo, kasb-hunar fanini, ta'lim-tarbiya tizimini zamonaviy, innovasion texnologiyalar asosida takomillashtirishni taqozo etadi.

O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonunida (1997y.) ta'lim davlatimiz ijtimoiy taraqqiyoti sohasida ustivor deb e'lon qilinishi kasb-hunar fani zimmasiga juda katta mas'uliyatli ulug'vor vazifalarni yukladi. Juda boy ilmiy, ma'naviy, madaniy, diniy merosimizni qayta tiklash ularni zamon ruhi talabi bilan uyg'unlashtirib faqat shaxsiy, milliy manfaat kasb etib qolmasdan umumjahon ma'naviy, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotga ulkan hissa bo'lib qo'shilmogda.

O'sib kelayotgan yosh avlod va ularning kelajakda qanday kasb-hunar egallashlariga qarab, Respublikamiz kelajagini tasavvur qilsa bo'ladi. Yoshlar farovon hayotimiz mezonidir. Xuddi shu ma'noda yoshlarning ta'lim-tarbiyasiga jiddiy e'tibor bermog'imiz lozim. Yoshlar ta'lim-tarbiyasi har bir ota-onaning, o'qituvchi-tarbiyachining Vatan oldidagi muqaddas burchidir.

Kasb-hunar tarixiga oid manbalarda yozilishicha kishilik jamiyati paydo bo'lgach, ijtimoiy hayotda orttirilgan tajribalarni quyi avlodga o'rgatish ehtiyoji tug'ildi. Tajribalarning to'planishi natijasida ta'lim-tarbiyaning dastlabki omillari vujudga keldi. Tabiat, ijtimoiy hayot haqidagi tajribalar asosida ma'lum bilimlar boyib bordi.

Ta'lim-tarbiya ishlari bilan shug'ullanuvchi tarbiyachilar kasb-hunar

homiylari sifatida ajralib chiqa boshlashdi. Ularning ta'lim-tarbiya borasidagi faoliyatlari va to'plangan tajribalaridan o'rinli foydalanishlari kasb-hunar fanining vujudga kelishiga olib keldi. Shu asnoda dastlabki maktab ko'rinishidagi muassasalar vujudga keldi, taraqqiy etdi. Shunday qilib, kasb-hunar ta'lim-tarbiyaning maqsad va vazifalari, ularning mazmuni, metodlari hamda tashkil etish shakllari haqida ma'lumot beruvchi fanga aylandi. Demak, kasb-hunar fani o'sib kelayotgan yosh avlodni barkamol inson qilib tarbiyalash uchun ta'lim-tarbiyaning mazmuni, umumiy qonuniyatlari va amalga oshirish yo'llarini o'rgatuvchi fandir. Shuni unutmaslik kerakki, kasb-hunar fanining yutuqlarisiz jamiyatni olg'a siljitish g'oyat mashaqqatli kechadi. Agar kasb-hunar fanidan xabarsiz bo'lgan kishilar kasb-hunar fanini o'z vaqtida o'rganib, yutuqlaridan samarali foydalanganlarida bolalarni ham yahshiroq tarbiyalagan bo'lur edilar. Kasb-hunardan yaxshi xabardor kishilar esa o'z bilimlarini tajribada ishlata olmaganliklari uchun bolalarni tarbiyalashda muvaffaqiyatga erisha olmaganlar.

Kasb-hunar fanini ham nazariy, ham amaliy jihatdan puxta o'rganish lozim. Ta'lim tarbiyadan ko'zlangan maqsadni anglash va ular tizimida yangi bilimlar berish bolalarni to'g'ri tarbiyalash shartidir. Bunda tarbiyachining beg'araz mehnati, bolalarni sevishi va ularga jon fido aylashlari tarbiya samaradorligini ta'minlaydi. Biroq, ijtimoiy jarayonda to'plangan tajribalar tarbiya mazmunini tashkil etsa-da, ularning hammasini yosh avlodga o'rgatishning imkoniyati yo'q edi. Faqat xalq ta'limi tizimiga kiruvchi bo'g'inlar orqali orttirilgan tajribaning muayyan qismini qamrab olish mumkin edi. Bu yerda ham muammo tug'ildi. Hozirgi kunda barcha xildagi tajriba shakllari tarbiya mazmunini tashkil eta oladimi? Yosh avlod tarbiyasiga aloqador tajribalarni qanday ajratish mumkin? Kim bunday ish bilan shug'ullanadi?

Tabiiyki, barcha xildagi tajriba shakllari ham tarbiya mazmunini tashkil etavermaydi. Chunki:

- Birinchidan, kasb-hunar, xususan, o'zbek xalq kasb-hunarsi taraqqiyotida juda murakkab bo'lgan tomonlar (hatto bu murakkablikning noma'lum qismlari) mavjudki, ularni yoshlar daf'atan o'zlashtira olmaydilar. Masalan; sharq falsafasi

yoki mutafakkirlarimizning ma'naviy merosini falsafa, tabiiy va gumanitar fanlar, diniy manbalardan yaxshi xabardor bo'la olmaganligimiz sababli o'rganishimiz qiyin kechadi;

- ikkinchidan, tarbiyalanuvchilarning yosh xususiyatlariga ko'ra va ham metodik, ham moddiy asosning etishmasligi sababli to'plangan tajribalarning hammasini olish imkoniyati yo'q va hokazo. Eng muhimi, jamiyat taraqqiyotining ijtimoiy-iqtisodiy ehtiyojlariga va kelajakda kutiladigan o'zgarishlarni hisobga olib tarbiya mazmunini shakllantirish darkor.

O'zbek kasb-hunarsining vazifasi Respublikamizda yashovchi turli millatlatlarning orzu-istaklariga monand ta'lim-tarbiyaning ham nazariy, ham amaliy muammolarini milliy qadriyatlar asosida to'g'ri hal etib berishdir. Bunda islom dunyosida qalam tebratgan allomalarimizdan tortib, zamondosh olimu fuzalolarimizning ta'limotlaridan hamohang ta'lim tarbiyaga oid qirralarini izlab topishni taqozo etadi. Yosh-avlod dunyoqarashini shakllantirishda istiqloldan avval qoralangan tasavvuf ilmidan ham foydalanish joiz. Negaki, bir mafkura yakka hokimligiga endilikda nuqta qo'yiladi. Erkin fikrlash tizimi yosh avlod ruhini tarbiyalashdagi bosh omillardan biridir.

«Kasb-hunar» atamasi «Peyne»-«bola»va «aygogeyn»-«yetaklamoq» degan ma'noni bildiruvchi lotincha «daydagogos» so'zlaridan paydo bo'lishi quyidagicha izohlanadi: eramizdan oldingi I asrlarda Gresiyada, quldorlarning bolalalarini ovqatlantiradigan, sayrga olib boruvchi, tarbiyachi-qullarni «pedagog» deb atalgan. U bolalarning kamolga yetishiga mas'ul bo'lgan. Quldorning bolasini yetaklab maktabga olib borgan va olib kelgan. Maktabda ishlovchi o'qituvchilarni «didaskallar» (didayko-men o'qitaman) deyishgan. Feodalizm jamiyatiga kelib esa har ikki kasbdagi kishilar hamkorligi natijasida ta'lim-tarbiya bilan maxsus shug'ullanuvchilar vujudga kelgan. Ularni chex pedagogi Ya.A.Kamenskiy ta'kidlaganidek, «pedagog» deb nomlaganlar va bu so'z hozir ham ta'lim-tarbiya beruvchi o'qituvchilarga nisbatan qo'llaniladi.

"Innovasiya" tushunchasi lotin tilidan olingan bo'lib (t-ga, pouiz-yangi), ya'ni tarjimasi "yangilanish", "o'zlashtirish", "qandaydir yangilikni kiritish",

"yangini joriy qilish", "yangilik kiritish". Uz navbatida "yangi" so'zi ushbu tushunchaning asosiy yadrosini tashkil etadi.

"Innovasiya" tushunchasi doimo bir xil ma'noda ta'riflanmaydi, ko'p hollarda u "yangilik kiritish" tushunchasi sifatida ko'rib chiqiladi.

Jumladan, S.Turg'unovning fikricha, innovasiya - maqsadga yo'naltirilgan o'zgartirishlar bo'lib, ma'lum bir ijtimoiy birlikka -muassasa, uyushma, jamoa va guruhlariga yangi, nisbatan barqaror bo'lgan elementlarni, umumiy holda halqning ma'naviy-madaniy munosabatlari va mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi bilan uzviy bog'liq bo'lgan yangiliklarni kiritishdir.

"Innovasiya" tushunchasi keng va tor ma'noda ishlatiladi. Birinchi ma'noda innovasiya — biror bir yangi ijtimoiy ehtiyojni yaxshiroq qondirish uchun yangi ilmiy, amaliy vosita, ya'ni yangilik yaratish, tarqatish va qo'llashni o'z tarkibiga oladigan kompleks jarayon sifatida qaraladi. "Innovasiya", ikkinchi ma'noda, biror bir jamoa faoliyatini takomillashtirish uchun kiritilayotgan va bu innovasiya subyektidan yangilik deb qabul qilingan yangi vosita, uslub, yondashuvlar tizimiga nisbatan ishlatiladi.

M.Jumaniyozovanning ta'kidlashicha, innovasiya - rivojlangan texnologik jarayonning takomillashgan mahsuloti ko'rinishida namoyon bo'ladigan ijodiy mehnatning natijasi. U amaliyot va nazariyaning muhim qismi bo'lib, ijtimoiy-madaniy obyekt sifatlarini axshilashga yo'naltirilgan ijtimoiy subyektlarning harakat tizimi, ayni vaqtda u boshqariluvchi va nazorat qilinuvchi o'zgarishlar mexanizmi bo'lib hisoblanadi.

N.Mamadov o'zining "Umumiy ta'lim maktablarini innovasion boshqarish" deb nomlangan tadqiqotida innovasiya - bu boshqaruv obyektni o'zgartirish hamda yuqori darajadagi ijtimoiy-iqtisodiy, ilmiy-texnik samaralarni qo'lga kiritish maqsadida muayyan sohalarga yangilikni tatbiq qilishning yakuniy natijasi ekanligini qayd etib o'tadi.

Respublikamiz olimlarining "innovasiya" tushunchasiga bergan ta'riflaridagi xilma-xillik chet el olimlarining tadqiqotlarida ham ko'zga yaqqol tashlanadi. Mazkur ta'riflarning qiyosiy tahlili asosida tushunchaning quyidagi mohiyatli jihatlarini ajratib ko'rsatish mumkin:

- 1) innovasiya - bu yangilik (A.M.Saranov, E.M.Rodgers);
- 2) innovasiya - bu o'zgartirish, yaxshilash, takomillashtirish demakdir (K.Angelovski);
- 3) innovasiya - bu o'zida taraqqiyparvar asosni aks ettiruvchi tarkibiy qismlar majmui (V.I.Zagvyazinskiy);
- 4) innovasiya - bu yangi vosita, yangi metod, yangi texnologiya (V.A.Slastenin, V.I.Podshova);
- 5) innovasiya - bu yangi metodlarni va ta'limning yangi mazmundagi metodlarini ishlab chiqishdir (P.G.GSedrovskiy)².

Biroq shuni alohida ta'kidlab o'tish joizki, pedagogik innovatikaga oid adabiyotlarda "innovasiya" tushunchasi bilan birgalikda "yangilik" tushunchasi ham qo'llaniladi. Pedagogik innovatikaning asosiy ko'rsatkichi uning boshlang'ich rivojiga bog'liq bo'lib, kasb-hunardagi yangilik - bu faqatgina g'oya, yondashuv, metod, texnologiya, shunchaki takdim etilgan va hali foydalanilmagan holatdagi emas, balki bu innovasion jarayonning majmuaviy va alohida tarkibiy qismidir, u esa o'zida o'zgaruvchan sharoitlarda va holatlarda ta'lim-tarbiya masalalarini yetarlicha samarali hal etishni ifoda etadi.

Innovasiya esa - bu ma'lum bir bosqich asosida rivojlanadigan jarayondir. U bir nechta ma'nodagi tushunchalarni beradi:

² Ellis Artur, Fouts Djefri. Pedagogicheskiye innovatsii / Per. s angl. A.I.Drugova. - M.: ITPiMIO, 1993.

Innovasiya bu - ta'limning yangi mazmuni, shakl va metodlarini ishlab chiqish.

1. Yaratilgan pedagogik tizimni joriy etish va ommalashtirish.
3. Ta'lim muassasani boshqarish va rivojlantirishning yangi texnologiyasini ishlab chiqish.
4. Tajriba-sinov obyekti sifatida.
5. Yaxlit pedagogik jarayonni innovasiyalash.
6. Yangiliklarning qo'llanilish darajasini yangi mahsuldorliklar bilan o'zgartirish bosqichi.

M.Jumaniyozovanning fikricha, agar faoliyat qisqa muddatli bo'lsa, yaxlit tizim xususiyatiga ega bo'lmasa, o'z oldiga muayyan tizimdagi ba'zi tarkibiy qismlarnigina o'zgartirishni vazifa qilib qo'ygan bo'lsa, u holda biz "novasiya" haqida fikr yuritayotgan bo'lamiz. Agar faoliyat muayyan konseptual yondashuv asosida amalga oshirilayotgan bo'lsa, uning natijasi o'sha tizimning rivojlanishiga yoki uning prinsipial o'zgarishiga olib kelsa, biz buni "innovasiya" deya olamiz.

Faoliyat xususiyati jihatdan novasiya ko'lami va vaqti bo'yicha chegaralangan, innovasiya esa yaxlit va davomli bo'ladi. Novasiya natijasida amaldagi tizimda alohida elementlar o'zgartiriladi, innovasiya natijasida esa amaliyot subyektlarining pozisiyalari to'la yangilanadi, tizimdagi aloqalar va tizim isloh qilinadi¹.

Pedagogik innovatikaga doir qator tadqiqotlarni tahlil etish asosida quyidagi xulosaga kelish mumkin: "Innovasiya tushunchasi mazmunan "yangi", "yangilik" tushunchalarining aynan o'zi emas. Istalgan yangilik, qachonki, amaliy faoliyatda o'zining keng qamrovli samarasini bersa va keng ko'lamli ehtiyoj obyektiga aylansagina, tom ma'nodagi innovasiya deb atash mumkin bo'ladi".

Pedagogik innovasiyalar keng qamrovli ko'rinishga ega bo'lib, ularning umumtomonidan qabul qilingan aniq tipologiyasi yoki tasnifi mavjud emas. Innovasiyalarni guruhlashtirishga doir yigirmadan ortiq tasnif mavjud, masalan: uzoq muddatli innovasiyalar va qisqa muddatli innovasiyalar, radikal va reformatorli, avtoritar va liberal, inisiativ va administrativ va boshqalar.

Innovasiyalar texnologiya, iqtisodiyot, savdo-sotiq, ijtimoiy tizim bilan aloqadorlikda xilma-xil ko'rinishlarda namoyon bo'ladi.

Ana shu nuqtai nazardan kasb-hunar kollejlari boshqaruvida joriy etiladigan innovasiyalarni quyidagicha tasnif etish mumkin:

1. Pedagogik innovasiyalar.
2. Tashkiliy innovasiyalar.
3. Iqtisodiy innovasiyalar.
4. Texnologik innovasiyalar.

1. Pedagogik innovasiyalar deganda, pedagogik yangiliklarni o'rganish, o'zlashtirish, ularni baholash, foydalanish va amaliyotga tatbiq etish tushuniladi. Amaliyotchilarni ko'proq yangilanishlarning aniq natijalari tashvishga solsa, olimlarni aksincha faoliyatga tegishli bo'lgan bilimlar tizimi qiziqtiradi.

2. Tashkiliy innovasiyalarga ta'lim muassasasini boshqarishning yangi metodlarini amalga oshirish, tashqi aloqa o'rnatish va ish o'rinlarini tashkil etish tushuniladi. Tashkiliy innovasiyalar ta'lim muassasasining o'quv-tarbiya jarayoni samaradorligiga qaratilgan va ma'muriy buyruqbozlikdan voz kechadigan faoliyat turidir.

Tashkiliy innovasiyalar yangi metodlar asosida xodimlarning ma'suliyati va vakolatidan kelib chiqib ish taqsimotini samarali tashkil etishga xizmat qiladi. Bu esa, o'z navbatida ishlab chiqarish va yaxlit pedagogik jarayonning takomillashishiga olib keladi.

3. Iqtisodiy innovasiyalar deganda, zamonaviy texnika va texnologiyalarni joriy qilinishi natijasida, jahon standartlariga mos keladigan mutaxassislarni tayyorlash tushuniladi.

Uzbekistonda ko'p ukladli bozor iqtisodiyotining rivojlanishi natijasida, ta'lim sohasida xam iqtisodiy innovasiyalar shakllanmokda. U quyidagicha ko'rinishga ega:

- davlat tomonidan ta'limni yangi mexanizm asosida moliyalashtirish;
- ta'lim oluvchilarning o'z-o'zini moliyalashtirishi;

- korxonalar tomonidan ta'lim tizimini moliyalashtirishning yangi mexanizmi;

- ta'lim tizimida mehnatga haq to'lashning yangi mexanizmi;

- ta'limdagi faoliyat ko'lamini iqtisod qilish mexanizmi.

5. **Texnologik innovasiyalar** yuqorida keltirilgan pedagogik, tashkiliy va iqtisodiy innovasiyalar bilan muvofiqlashtirilgan va o'zaro aloqadorlik asosida amalga oshirilsagina, u o'zining yuqori samarasini beradi.

Texnologik innovasiyalarni ishlab chiqish va keng tatbiq etish, ta'lim jarayonida zamonaviy kompyuter va telekommunikasiya texnologiyalari innovasion o'quv jarayoni rivojlanishining muhim omilidir. Yangi axborot texnologiyalarini oxirgi o'n yillikdagi takomillashuvi va rivojlanishi ta'lim tizimiga yangiliklarni kirib kelishini tezlashtirdi va kuchaytirdi.

Hozirgi kundagi innovasion ta'lim tizimida keng tarqalgan texnologiyalarning asosiy turi sifatida quyidagilarni ajratsak bo'ladi:

- audio va video kassetalar, disklar;

- telefon;

- radio va televideniye;

- elektron pochta;

- kompyuter o'rgatish programmalari;

- 1p1yegpe1;

- telekonferensiya (audio-konferensiyalar, audio-grafik, video-konferensiyalar, kompyuter konferensiyalari).

1.2. Pedagogik texnologiya nazariyasining umumiy asoslari

Innovasiyalarning xususiyatlariga ko'ra ularni turli xil asoslar bilan turlicha tasniflash mumkin, ya'ni bugungi kunda yangilik kiritishning tugallangan tasnifi mavjud emas. Shu bilan birgalikda bizning tadqiqotlarimiz doirasida aniqlangan ma'lumotlarga ko'ra, pedagogik jarayonlarni tashkil etishda va samaradorligini ta'minlashda eng avvalo, yangiliklarni pedagogik jarayonlarning qaysi bo'g'iniga tegishli ekanligini inobatga olish maqsadga muvofiq hisoblanadi¹.

S.Turg'unovning fikricha, pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarishda innovasion salohiyatiga ko'ra yangiliklar modernizasiya, unifikasiya, faoliyatni takomillashtirish, shaklan o'zgartirish, rivojlantirish bilan bogliq bo'lgan modifikasion innovasiyalar; oldindan ma'lum bo'lgan metodlarning elementlarini yangi tizimga birikishini nazarda tutuvchi birikkan innovasiyalar; o'xshashlikka va umumiylikka ega bo'lmagan radikal innovasiyalar innovasion jarayonlarning asosi sifatida belgilanishi mumkin.

O.G.Xomeriki o'quv-tarbiya jarayonining u yoki bu tarkibiy qismi bilan bog'liqlikda innovasiyalarni quyidagi turlarga ajratib ko'rsatadi:

- 1) ta'lim mazmuniga doir innovasiyalar;
- 2) o'quv-tarbiya jarayoni metodlari, metodikasi va texnologiyasiga doir innovasiyalar;
- 3) o'quv-tarbiya jarayonini tashkil etishga doir innovasiyalar;
- 4) ta'lim tizimini boshqarishga doir innovasiyalar¹.

M.M.Potashnik va V.S.Lazarevlar ta'limda qo'llanilish ko'lamiga ko'ra innovasiyalarni quyidagi turlarga ajratib ko'rsatishadi:

- 1) lokal, alohida, o'zaro boglanmagan xususiy innovasiyalar;
- 2) o'zaro bog'langan, xususiy innovasiyalar majmuini ifoda etuvchi modulli innovasiyalar;
- 3) butun ta'lim muassasasini qamrab oluvchi tizimli innovasiyalar .

Yangilikning o'zgarish tezligi va yangilik darajasiga ko'ra

innovasiyalarning ko'proq detallashtirilgan tasnifini N.Yu.Postalyuk quyidagicha taklif etadi:

1. Nulevoy raqamli innovasiyalar - tizimning dastlabki xususiyatlarini regenerasiya qilish (an'anaviy ta'lim tizimi yoki uning elementlarini qayta ishlab chiqish).

Birinchi raqamli innovasiyalar tizimda miqdor o'zgarishlar kiritish bilan tavsiflanadi. Bunda innovasiyaning dastlabki sifati o'zgarmaydi.

2. Ikkinchi raqamli innovasiyalar esa, tizim ichidagi elementlarni qayta guruhlashtirish yoki tashkiliy jihatlarini o'zgartirish bilan tavsiflanadi (masalan, mavjud pedagogik vositalarning yangi ko'rinishi, ketma-ketligini o'zgartirish, ulardan foydalanish qoidalar va boshqalar).

3. Uchinchi raqamli innovasiyalar ta'lim tizimining yangi shart-sharoitlarga moslashuvchan o'zgarishini o'zida ifoda etadi.

4. To'rtinchi raqamli innovasiyalar yangi yechimga ega bo'ladi (bular ko'pincha ta'lim tizimining ba'zi tarkibiy qismlari funksiyasini kengaytirishni ta'minlashga qaratilgan sifatli sodda, o'zgarishlardir).

5. Beshinchi raqamli innovasiyalar ta'lim tizimining yangi avlodini yaratishni nazarda tutadi (tizimning barcha yoki ko'pchilik dastlabki xususiyatlarini o'zgartirish).

6. Oltinchi raqamli innovasiyalarni amalga oshirish orqali "yangi turdagi" ta'lim tizimi yaratiladi. Bunda tizim hosil qiluvchi tamoyil saqlangan holda, tizimning funksional xususiyatlari o'zgaradi.

8. Yettinchi raqamli innovasiyalar ta'lim tizimini tubdan o'zgartirishga qaratilgan. Bunda ta'lim tizimining asosiy funksional tamoyili o'zgaradi va shu tarzda yangi pedagogik tizim hosil bo'ladi .

Pedagogik innovasiyalarni yuqorida bayon etib o'tilgan tasniflariga asoslangan holda, Sh.Zufarov tasnifi bo'yicha kasb-hunar kollejlarida qo'llanilishi mumkin bo'lgan ta'limiy innovasiyalarning quyidagi umumlashgan tizimini hosil qilish mumkin:

1. Ishlab chiqarish munosabatlarining chuqurlashuvi bilan bog'liqlikda

innovasiyalarni quyidagi turlarga ajratib ko'rsatish mumkin:

2. modifitsiyalashgan innovasiyalar. Masalan, "elektron guruh jurnallari", "elektron dekanat";
3. tuzatish kirituvchi innovasiyalar. Masalan, "yangi tahrirdagi reyting Nizomi";
4. o'zgartirish kirituvchi innovasiyalar. Masalan, "internet-ta'lim";
5. integrallashgan innovasiyalar. Masalan, "shaxsga yo'naltirilgan masofaviy ta'lim texnologiyalari";

Ta'lim jarayonining tarkibiy qismlariga munosabatiga ko'ra pedagogik innovasiyalarni quyidagi guruhlariga bo'lish mumkin:

1) ta'lim maqsadi va vazifalari bilan bog'liq pedagogik innovasiyalar. Masalan, "identiv o'quv maqsadlarini o'kuv vazifalariga aylantirish";

2) ta'lim va tarbiya mazmuni bilan bog'liq innovasiyalar. Masalan, "ta'lim mazmunini integratsiyalash va differensiyalashtirish", "axborotlashtirish va prognozlash";

3) ta'limning shakl, metod, vosita va texnologiyalari bilan bogliq innovasiyalar. Masalan, noana'naviy dars shakllari, interfaol metodlar, multimedia vositalari, ta'limning samarali texnologiyalari (modulli ta'lim texnologiyalari, madaniy-insonparvarlik yondashuv texnologiyalari);

4) ta'lim olganlikni tashxis etish bilan bogliq innovasiyalar. Masalan, o'quv portfoliolari;

3. Ta'lim subyektlarining shaxs shakllanishiga munosabatiga ko'ra pedagogik innovasiyalar quyidagi guruhlariga bo'linadi:

1) pedagog va o'qituvchilarning ma'lum bir qobiliyatlarini rivojlantirishga doir innovasiyalar. Masalan, birgalikdagi hamkorlikdagi faoliyatni rivojlantirish;

pedagog va o'qituvchilarning BKM, faoliyat usullari, kompetentligini rivojlantirishga doir innovasiyalgar.

Pedagogik qo'llanilish sohasiga ko'ra pedagogik innovasiyalar quyidagi turlarga bo'linadi:

1) o'quv jarayonida qo'llaniladigan pedagogik innovasiyalar. Masalan, ta'limning axborot texnologiyalari;

2) o'quv kursida qo'llaniladigan pedagogik innovasiyalar. Masalan, elektron xarita;

3) ta'lim sohasida qo'llaniladigan pedagogik innovasiyalar. Masalan, ta'limni demokratlashtirish;

4) ta'limni boshqarish sohasida qo'llaniladigan innovasiyalar. Masalan, ta'limning davlat boshqaruvidan davlat-jamoatchilik boshqaruviga o'tilishi.

5. Pedagogik jarayon ishtirokchilarining o'zaro harakat turiga ko'ra pedagogik innovasiyalar quyidagi guruhlariga bo'linadi:

1) jamoada o'qitishga doir innovasiyalar;

2) guruhli o'qitishga doir innovasiyalar;

3) tyutorlik;

4) fasilitatorlik;

5) repetitorlik.

6. Funksional imkoniyatlariga ko'ra pedagogik innovasiyalar quyidagi turlarga bo'linadi:

1) shart-sharoit bilan bog'liq innovasiyalar (ta'limiy muhitni o'zgartirishni ta'minlaydi, ijtimoiy-madaniy shart-sharoit va boshqalar);

2) mahsulot ko'rinishidagi innovasiyalar (pedagogik vositalar, loyihalar, texnologiyalar).

3) boshqaruvga doir yangiliklar kiritish.

7. Amalga oshirish usullariga ko'ra pedagogik innovasiyalar quyidagi turlarga bo'linadi:

4) rejali pedagogik innovasiyalar;

5) tizimli pedagogik innovasiyalar;

6) davriy pedagogik innovasiyalar;

6) stixiyali pedagogik innovasiyalar;

7) tasodifiy pedagogik innovasiyalar;

8) o'z-o'zidan yuzaga keluvchi pedagogik innovasiyalar.

8. Makonga yo'nalganligiga ko'ra pedagogik innovasiyalar quyidagi turlarga bo'linadi:

- 1) alohida pedagog faoliyatiga doir pedagogik innovasiyalar;
- 2) pedagoglarning metodik birlashmasiga doir pedagogik innovasiyalar;
- 3) alohida ta'lim muassasasi faoliyatiga doir innovasiyalar;
- 4) tuman, shahar, viloyat, respublika miqyosidagi pedagogik innovasiyalar;
- 5) xalqaro miqyosdagi pedagogik innovasiyalar.

9. Ijtimoiy-pedagogik ahamiyatiga ko'ra pedagogik innovasiyalar quyidagi turlarga bo'linadi:

- 1) alohida ta'lim muassasalariga doir pedagogik innovasiyalar;
- 2) aniq kasbiy-tipologik guruh pedagoglariga xos pedagogik innovasiyalar.

10. Novatorlik tadbirlari ko'lamiga ko'ra pedagogik innovasiyalar quyidagi turlarga bo'linadi:

- 1) lokal;
- 2) ommaviy;
- 3) global.

II BOB. O'RTA MAXSUS KASB HUNAR KOLLEJLARIDA ZAMONAVIT TA'LIMNING AHAMIYATI

2.1. Kasb-hunar kolleji o'quvchilarining mustaqil fikrlashini rivojlantirishda ta'limiy innovasiyalardan foydalanishda o'qituvchining roli

Tafakkurni mustaqillik talablariga hamda hozirgi axborotlar texnologiyasi hayotning barcha sohalariga shiddat bilan kirib kelayotgan, butun dunyoda globallashuv tendensiyalari kuchayib borayotgan davr talablariga moslashtirmasdan turib, jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy hamda ma'naviy-ma'rifiy islohotlarni yuqori sur'atlarda va muvaffaqiyatli davom ettirish mushkul. Bundan tashqari, yildan-yilga kuchayotgan raqobat, ba'zi davlatlarning jug'rofiy-siyosiy xuruji va mafkuraviy tazyiqlari, axborotlar xuruji, diniy-ekstremistik tashviqotlarning susaymayotganligi nafaqat milliy mustaqillikni, hatto milliy ayniyatni muhofaza qilishni dolzarb masalaga aylantirmokda. Aholining muayyan qismi, ayniqsa, tajribasiz yoshlar turli soxta shiorlar, chaqiriqlar, xalqimizga yot, buzg'unchi g'oyalar ta'siriga tushib qolishining oldini olish uchun avvalo, ularni mustaqil, tanqidiy, erkin fikrlashga o'rgatish, ular tafakkurini ijobiy mazmundagi bunyodkorlikka yo'naltirish lozim. Faqat erkin va mustaqil, tanqidiy va ijodiy fikrlay oladigan kishilardagina mutaassiblikka, turli buzg'unchi g'oyalarga nisbatan mafkuraviy immunitet oson vujudga keladi. Prezident Islom Karimov "Tafakkur" jurnali bosh muharriri savollariga bergan javoblarida Respublikamizda mustaqillik yillarida ishlab chiqilgan kadrlar tayyorlash milliy modelining xususiyatlariga to'xtalib o'tganda, yangi modelning eng asosiy jihati mustaqil fikrlovchi erkin Shaxsning shakllanishiga olib kelishi ekanligini quyidagicha ta'kidlab o'tadi: "Ta'limning yangi modeli jamiyatda mustaqil fikrlovchi erkin Shaxsning shakllanishiga olib keladi.

Uzining qadr-qimmatini anglaydigan, irodasi baquvvat, iymoni butun, hayotda aniq maqsadga ega bo'lgan insonlarni tarbiyalash imkoniga ega bo'lamiz. Ana shundan keyin ongli turmush kechirish jamiyat hayotining bosh mezoniga aylanadi. Shunda odam olomon bo'lib, har lahzada serkaga ehtiyoj sezib emas, aksincha - o'z aqli, o'z tafakkuri, o'z mehnati, o'z mas'uliyati bilan, ongli tarzda, ozod va hur fikrli inson bo'lib yashaydi"¹.

Demak, jamiyatni demokratlashtirish va insonparvarlashtirish kasb-hunar fani oldiga yuksak vazifalarni shart qilib qo'yadi. Ana shunday vazifalardan biri o'quvchilarning mustaqil fikrlashini shakllantirishdir. Aynan o'quvchilarning mustaqil fikrlashini shakllantirish orqali demokratik va insonparvar jamiyat uchun asosiy qadriyat sanalgan "jamiyat hayotida faol ishtirok etish", "hamkorlik", "individuallashtirish", "ongli intizom", "tolerantlik", "qadr-qimmat", "erkinlik" kabi tushunchalar hayotda o'z amaliy tasdig'ini topadi.

Fikrlash - aqliy faoliyat mahsuli. Eng asosiysi, fikrlash - merosiy tushuncha, u barcha insonlarga xos. Falsafiy, pedagogik, psixologik adabiyotlarda fikrlashning bir qancha turlari ajratib ko'rsatiladi. Har biri o'zining tadqiqot obyektidan kelib chiqqan holda qaysi birlarini asosiy deb qarashga moyildirlar. Jumladan, falsafiy, psixologik, pedagogik lug'atlarda fikrlashning quyidagi turlari ajratib ko'rsatiladi: mantiqiy, abstrakt (mavhum), umumlashgan, nazariy, texnik, reproduktiv, ijodiy (produktiv), tizimli, kategorial, induktiv, deduktiv, algoritmik, tanqidiy va boshqalar.

Biroq hech birida "Mustaqil fikrlash nima?" degan savolga javob mavjud emas va hatto, fikrlash turlari qatoriga kiritilmaydi. Chet el davriy nashrlari, pedagogik va psixologik adabiyotlarida ham mazkur tushunchaning mukammal ta'rif ko'zga tashlanmaydi. Respublikamizda ham «mustaqil fikrlash» tushunchasi Uzbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimovning Oliy Majlisning IX sessiyasida so'zlagan "Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori" nutqida birinchi bor e'tirof etilgan.

Bundan kelib chiqib aytish mumkinki, aynan "mustaqil fikrlash" jahon miqyosida Uzbekiston Respublikasi ta'lim sohasining qadriyatli yo'nalishini o'zida aks ettiradi.

Milliy kasb-hunarmizda "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" qabul qilinguniga qadar, "o'quvchilarning mustaqilligi", "tafakkurning mustaqilligi", "bilish faoliyati mustaqilligi" kabi tushunchalar keng qo'llanilgan. 1997 yildan so'ng Respublikamizda chop etilayotgan pedagogik davriy nashrlar ("Xalq ta'limi", "Uzluksiz ta'lim", "Pedagogik ta'lim", "Maktab va hayot" jurnallari, "Ma'rifat" gazetasi va boshqalar)da mustaqil fikrlash va o'quvchilarning mustaqil fikrlashini shakllantirish masalasiga keng e'tibor qaratildi.

Zamonaviy milliy psixologiyamizda birinchilardan bo'lib mustaqil fikrlash muammosini ijodiylik bilan bogliqlikda tadqiq etgan olim Z.T.Nishonova bo'lib, u o'zining "Mustaqil ijodiy fikrlashni rivojlantirishning psixologik asoslari" mavzusidagi doktorlik dissertasiyasida mustaqil fikrlash ijtimoiy psixologik omillar bilan bog'liq bo'lgan shaxs xislati ekanligini asoslab bergan. Tadqiqotning maqsad va vazifalari doirasida o'smir va o'spirinlarni mustaqil fikrlashga o'rgatishning ijtimoiy psixologik va aqliy omillari maxsus psixologik trening dasturi yordamida o'rganilgan. Tadqiqot asosida Uzbekiston sharoitida o'spirinlarning o'zidagi "psixologik muhofazani" yengib, o'zgaralar davrasida erkin, nostandart tarzda o'z fikrlarini tortinmay bayon eta olishlari ularda ijodiy mustaqil fikrlashni yanada rivojlantiruvchi omil ekanligi isbotlangan.

Mazkur tadqiqotning amaliy ahamiyati shundaki, tajriba va mashg'ulotlarda olingan natijalar ta'lim texnologiyalarini takomillashtirishda, o'quvchi bilan o'qituvchi fikrlash jarayenlarining uygunligi, "subyekt-subyekt" tarzidagi munosabatlarning asl mohiyatini tushungan holda, erkin fikrlovchi shaxs muammosi konsepsiyasini yaratishda alohida ahamiyatga egaligidir.

Psixolog Z.T.Nishonova o'zi olib borgan tadqiqotlari natijasini umumlashtirib, mustaqil fikrlashni ijtimoiy hodisa sifatida quyidagicha ochib beradi:

"Mustaqil fikrlash - insonning bevosita o'ziga va o'zgalarning mavjudligiga bog'liq bo'lgan, uning tashqi ijtimoiy muhitning turli ta'sirlariga nisbatan fikr-o'ylari vositasida qarshilik ko'rsatish va o'z fikrini bayon etish qobiliyatidir"¹. Biroq mustaqil fikrlash faqatgina turli ta'sirlarga nisbatan fikr-o'ylari vositasida qarshilik ko'rsatish va o'z fikrini bayon etishnigina emas, yuzaga kelgan muammoga javob topish asnosida o'quvchi yangi gipotezalarni o'ylab topishini ham qamrab olishi ta'rifda aks etmaydi.

Sh.Nurullayeva esa, "Boshlang'ich sinf ona tili darslarida o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatish metodikasi" mavzusidagi ilmiy tadqiqot ishida "mustaqil tafakkur", "tafakkurning mustaqilligi", "mustaqil fikrlash" tushunchalarini aralashtirgan holatda foydalanadi. Uning fikricha, "mustaqil fikrlash shaxsning shunday qobiliyatiki, bu jarayonda inson narsa va hodisalar xususida o'z qarashlariga ega bo'ladi. Mustaqil fikrlash - bu inson sezgi organlari va aqliy faoliyatning birligi natijasi o'laroq, mustaqil ravishda tahlil qilish, umumlashtirish, induktiv va deduktiv xulosalar chiqarish, taqqoslash, aniqlashtirish, mavhumlashtirish kabi fikriy amallardan foydalangan holda amalga oshiriladigan aqliy faoliyatdir".

Tadqiqotchi mustaqil fikrlash tushunchasining ancha mukammal ta'rifini berishga harakat qilgan. Biroq ta'rifda qanday yondashuv asosida shaxs voqyea-hodisani tahlil qilishi, umumlashtirishi, induktiv va deduktiv xulosalar chiqarishi, taqqoslashi, aniqlashtirishi, mavhumlashtirishi masalasi o'z aksini topmagan. Vaholanki, yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, shaxsning erkinligi, tashabbuskorligi, voqyea-hodisalarga shunchaki emas, tanqidiy yondashish, ijodiy fikr yuritish orqaligina Sh.Nurullayeva ta'kidlab o'tgan aqliy faoliyat amalga oshirilishi mumkin. Muallifning ularni yaxlit hodisa sifatida ko'ra olmaganligi ta'rifda bir oz aniqlikning yetishmasligiga sabab bo'lgan.

Adabiy ta'lim jarayonida o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatish muammosi ustida tadqiqotlar olib borgan pedagog olim Q.Husanboyeva inson tafakkuri tahliliga bag'ishlangan qator adabiyotlar va o'z kuzatishlariga asoslanib, mustaqil fikrlashga quyidagicha ta'rif bergan:

"Mustaqil fikrlash insonning o'z oldida turgan muammoni aniq maqsad va vazifalarni belgilagan holda bilimi hamda hayotiy tajribalariga tayanib, intellektual imkoniyati darajasida turli yo'l, usul, vositalar yordamida mustaqil ravishda hal qilishga yo'naltirilgan aqliy faoliyatdir"³. . Muallif mustaqil fikrlashga ta'rif berishda o'quvchining bilimi va hayotiy tajribasini asos sifatida qaragan. Haqiqatan ham, bilimlar zahirasi va hayotiy tajribani o'quvchining mustaqil fikrlash darajasini aniqlovchi muhim mezon sifatida qabul qilish to'g'ri bo'ladi.

B.Xodjayev o'zining "Umumta'lim maktabi o'quvchilarining mustaqil fikrlashini shakllantirishning didaktik asoslari (5-7-sinf tarix darslari misolida)" mavzusidagi nomzodlik dissertasiyasida mustaqil fikrlashni shakllantirishga ta'sir etuvchi omillarni yaxlit yondashuv asosida ochib bergan.

Tadqiqotda o'quvchilarning mustaqil fikrlashini shakllantirishga ta'sir ko'rsatuvchi asosiy - fiziologik, psixologik, ijtimoiy va pedagogik omillar hamda maxsus - metodik omillar, ularning rivojlanishiga olib keluvchi «mahsuldor sabablar» alohida-alohida o'rganilgan.

Mustaqil fikrlashni shakllantirishga pedagogik jihatdan ta'sir ko'rsatuvchi mahsuldor sabablarni to'rtta umumiy omilga ajratib ko'rsatish mumkin: fanlarning o'quv-uslubiy majmualar bilan ta'minlanganligi; mustaqil fikrlashni shakllantirish jarayonning tarkibiy qismi sifatida yuzaga chiquvchi sinf xonasining moddiy-texnik ta'minoti; bilimlar zahirasi hamda o'qituvchi shaxsi va pedagogik faoliyati.

Pedagogik omillar

Fanlarning o'quv-uslubiy majmualar bilan ta'minlanganligi

Sinf xonasining moddiy-texnik ta'minoti

Bilimlar zahirasi

O'qituvchi shaxsi va pedagogik faoliyati

³ Nurullayeva Sh.O'. Boshlang'ich sinf ona tili darslarida o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatish metodikasi: Pedagogika fanlari nomzodi ... dis. -T., 2007. - B.8.

Mustaqil fikrlashni shakllantirishga ta'sir ko'rsatuvchi pedagogik omillar (B.X.Xodjayev tasnifi bo'yicha). Muallifning fikricha, mustaqil fikrlashni shakllantirishga ta'sir etuvchi omillar yaxlit ko'rinishga ega bo'lib, tadrijiy tavsifga egadir. Ya'ni mazkur jarayonga ta'sir etuvchi mahsuldor sabablarning to'planib borishi, ularning tabaqalashuvi, ta'sir doirasi ularni umumiy omillar tarzida jamlashga imkon beradi.

Mustaqil fikrlashni shakllantirishga ta'sir etuvchi omillarni bilish va ularning ta'sir etish darajasini baholay olish o'quvchilarning mustaqil fikrlashini muvaffaqiyatli shakllantirishga keng imkon yaratadi.

Fikrlash bilan bog'liq adabiyotlarni o'rganish natijasida mustaqil fikrlashni ijodiy va tanqidiy fikrlash bilan chambarchas bog'liq va aloqadorlikda ekanligiga amin bo'ldik.

Mustaqil fikrlash - bu insonning muammoni, uni hal qilish yo'llarini o'zi ko'ra olishi va unga mustaqil javob topa olish qobiliyatidir. Mustaqil fikr tayyor mulohazalarga, boshqalarning fikrlariga qaram bo'lib qolmaydi. U voqeyelikni bilishga ijodiy yondashadi va uni o'rganishning yangi yo'llarini izlab topadi. Mustaqil fikrlash fikrning tanqidiyligi bilan chambarchas bog'liq bo'lib, shaxs ijodiy faolligining muhim qirrasini o'zida aks ettiradi.

Kasb-hunar kolleji o'quvchilarining mustaqil fikrlashini rivojlantirish aniq ta'limiy sharoitni taqozo etib, auditoriya mashg'ulotlari jarayonida ta'limiy innovasiyalardan keng foydalanishni talab etadi. Kasb-hunar kolleji o'quvchilarining mustaqil fikrlashini rivojlantirishda foydalanish lozim bo'lgan ta'limiy innovasiyalarni uchta katta guruhga bo'lish mumkin:

- 1) ta'limning interfaol metodlari;
 - 2) grafik organayzerlar;
- o'yinlar.

Kasb-hunar kolleji o'quvchilarining mustaqil fikrlashini rivojlantirish		
Interfaol metodlar	Grafik organayzerlar	Uyinlar
Erkin yozish, Besh minutlik esse, Asoslangan esse, Og'zaki va yozma suhbat, Chalkashtirilgan mantiqiy zanjirlar ketma-ketligi	T-chizma, jadval, Venn diagrammasi, Xulosalash jadvali, Ikki qismli kundaliklar	"Zanjir", "BLIS", "Charxpalak"

Kasb-hunar kolleji o'quvchilarining mustaqil fikrlashini rivojlantirishga doir ta'limiy innovatsiyalar I. Interfaol metodlar.

"Erkin yozish" interfaol metodi. Uqituvchi o'quvchilarga besh minut vaqt davomida "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi haqida bilganlarini daftarlariga yozishni so'raydi. Vaqt tugagach, ba'zi talabalardan yozganlarini o'qib berishni so'raydi. Vaqtdan yutish uchun qolgan talabalar avval o'z yozganlarini o'qib bergan talabalarinikiga o'xshagan fikrlarini aytishlari mumkin.

"Besh minutlik esse" interfaol metodi. Yozma topshiriqning ushbu turida talabalardan quyidagi ikki topshiriqni bajarish: mazkur mavzu bo'yicha ular nimalarni o'rganganliklarini mustaqil bayon etish va ular baribir javobini ololmagan bitta savol berish so'raladi.

"Asoslangan esse" interfaol metodi. Masalan, o'quvchilarga "Boshlang'ich ta'limni rivojlantirishning zarurligi shundaki " mavzusida asoslangan esse yozish topshirig'ini berish mumkin.

Topshiriqni bajarish tartibi:

1. Mazkur mavzu yuzasidan o'z nuqtai nazarlaringizni bayon eting.
2. Nuqtai nazaringizni asoslash uchun dalillar kiriting.

3. Mavzu yuzasidan aniq xulosalar chiqaring.

"Og'zaki va yozma davra suhbatlari" interfaol metodi. o'qituvchilarning mustaqil fikrlash faolligini ta'minlash maqsadida "yozma" va "og'zaki" davra suhbatlaridan foydalanish maqsadga muvofiq.

Yozma "Davra suhbatlari" - bu birgalikdagi o'qitish metodi bo'lib, bunda qog'oz va ruchka doimo aylana bo'ylab, o'yin ishtirokchilarining kichik guruhi orasida uzatib turiladi. Misol uchun, sheriklardan bir qandaydir g'oyani yozib, keyin varaqni chap tomonidagi sherigiga uzatadi. U o'sha g'oyaga o'zining qandaydir mulohazalarini qo'shadi va varaqni keyingi kishiga uzatadi. Ushbu rusum-qoidaning boshqa variantida har bir ishtirokchi yozuvini o'zining rangi bilan yozadi. Bu umumiy fikrni shakllantirishda qo'shilgan hissani ko'rinarli darajada ko'rsatib turadi va o'qituvchiga tushunishga va har birining ishtirokini qayd qilishga yordam beradi.

Og'zaki "Davra suhbatlari" - bu birgalikda o'qitish metodi bo'lib, oldingisiga o'xshaydi, faqat u og'zaki shaklda o'tkaziladi. Har bir ishtirokchi navbati bilan oldingi odam aytgan fikrni ilg'ab oladi va rivojlantiradi.

"Chalkashtirilgan mantiqiy zanjirlar ketma-ketligi" interfaol metodi. Masalan, "Ta'lim metodlari" mavzusi bo'yicha amaliy mashg'ulot o'tkazilayapti, deylik. Dastlab o'qituvchi doskaga ta'lim metodlarni chalkashtirilgan holda yozib qo'yadi. So'ngra, ulardan mazkur metodlarni qaysi guruhga kirishiga qarab, og'zaki, ko'rgazmali va amaliy metodlarga tasniflashni taklif etadi.

Mashq

Hikoya

Videometod

Munozara

Didaktik o'yinlar

Laboratoriya metodi

Suhbat

Tushuntirish

Ma'ruza

Kitob bilan ishlash

Illyustrasiya

Dmeonstrasiya

Og'zaki

Hikoya

Munozara

Suhbat

Tushuntirish

Ma'ruza

Ko'rgazmali

Videometod Kitob bilan ishlash Illyustrasiya Demonstrasiya

Amaliy

Mashq

Didaktik o'yinlar

Laboratoriya metodi

II. Grafik organayzerlar.

T-chizmalar. T-chizma munozara vaqtida qo'shaloq javoblar (ha/yo'q, tarafdor/qarshi) yoki taqqoslash-zid javoblarni yozish uchun universal grafik organayzer hisoblanadi. Masalan, o'quvchilarga "Zamonaviy oilalar rivojining ijobiy va salbiy jihatlarini aks ettiruvchi T-chizmani to'ldirishni taklif etish mumkin:

Zamonaviy oilalar rivojining ijobiy tomonlari	Zamonaviy oilalar rivojining salbiy tomonlari

Konseptual jadval. o`qituvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantiruvchi grafik organayzerlardan biri, bu - konseptual jadval. Uchta va undan ko`p jihatlar yoki savollarni taqqoslash taqozo etilganida ushbu metod, ayniqsa foydali bo`ladi. Jadval quyidagicha tuziladi: vertikal bo`yicha taqqoslanadigan narsalar, gorizontal bo`yicha esa, ushbu taqqoslash bajariladigan xususiyat va xossalar joylashtiriladi.

“Таълим воситалари” мавзусидаги концептуал жадвал					
Восита	Белгилари	Таърифи	Функцияси	Қоидалари	Изоҳ
Идеал воситалар					
Материал воситалар					
Таълимнинг техник воситалари					

Venn diagrammasi. Venn diagrammasi bir-birini kesadigan ikki yoki undan ortiq doiralarda qo`llaniladi, ular o`rtasida yozish uchun yetarli joy kolishi kerak. U g`oyalarni zidlash uchun ishlatilishi yoki ularning umumiy xususiyatlarini ko`rsatib berishi kerak.

Masalan, o`quvchilarga boshlang`ich sinf o`qituvchisining kasbiy faoliyati va innovation faoliyatini o`zaro taqqoslab o`rganish topshirig`i berilishi mumkin.

Topshiriqni bajarish tartibi:

1) kichik guruhlarda Venn diagrammasini tuzadilar va kesishmaydigan joylarida boshlang`ich sinf o`qituvchisining kasbiy faoliyati va innovation faoliyati fikrlarini oydinlashtirib olib, to`ldiradilar.

2) juftliklarga birlashadilar, o`zlarining diagrammalarini taqqoslaydilar va to`ldiradilar.

3) doiralarning kesishuvchi joyida ikki doira uchun umumiy bo`lgan fikrlar ro`yxatini tuzadi.
ish natijalarining takdimoti.

"Kasbiy faoliyat" tushunchasi

"Innovation faoliyat" tushunchasi

"Xulosalash" grafik organayzeri. Qo`llash tartibi:

1. o`qituvchilarni beshta guruhga bo`linadi.
2. Har bir guruhga umumiy mavzuning alohida qismlari tushirilgan tarqatma materialni takdim etadi.
3. Har bir guruh o`ziga taqdim etilgan muammo yuzasidan savollarga javob topib, o`z xulosalarini jadval ko`rinishida tayyorlashadi.
4. Barcha guruhlar o`z jadvallari bo`yicha taqdimot qilishadi. Guruhlarning xulosalariga asoslangan holda, umumiy xulosalar chiqariladi.

1-guruh uchun topshiriq:

<i>Tarbiyaviy ishlarni tashkil etishda sanday soidalarga rioya silinishi zarur?</i>	<i>Tarbiyaviy ishlarni tashkil etishda anis soidalarga rioya silmaslik sanday osibatlariga olib keladi?</i>	<i>Tarbiyaviy ishlarni tashkil etish soidalari nima uchun hamma vast ham bir xil natija beravermaydi ?</i>	<i>Xulosangiz...</i>

2-guruh uchun topshiriq:

<i>Tarbiya jarayeniga tasir ko`rsatuvchi omillarga nimalar kiradi?</i>	<i>Qanday omillar tarbiya jarayoniga ijobiy tasir ko`rsatadi?</i>	<i>Qanday omillar tarbiya jarayoniga salbiy tasir ko`rsatadi?</i>	<i>Xulosangiz...</i>

3-guruh uchun topshiriq:

<i>Tarbiya metodlari, usullari va vositalari tushun chalarin i sanday izohlash mumkyn?</i>	<i>Tarbiya metodlarini so'llash shartlariga nimalar kiradi?</i>	<i>Samarali tarbiya metodlariga sanday metodlarin kiritish mumkin?</i>	<i>Xulosangiz...</i>

4-guruh uchun topshiriq:

<i>Tarbiyaviy yshlarni sanday yo'nalishlarda tashkil etish mumkin?</i>	<i>Tarbiyaviy ish yo'nalishlarining umumiy xususiyatlariga nimalar kiradi?</i>	<i>Tarbiyaviy ish yo'nalishlarining o'ziga xosliklari nimalarda namoyon bo'ladi?</i>	<i>Xulosangiz...</i>

5-guruh uchun topshiriq:

<i>Tarbiyaviy jarayonni texnologiyalash-tirish deganda nimani tushunish lozim?</i>	<i>Tarbiya jarayonini texnologiyalash-tirish kanday imkoniyatlarni tasdim etadi?</i>	<i>Nega hamma vast xam tarbiya jarayonini texnologiyalash-tirib bgsldmaydi?</i>	<i>Xulosangiz...</i>

Ikki qismli kundaliklar grafik organayzeri. Ikki qismli kundaliklar o'quvchilarga matn mazmunini o'z shaxsiy tajribasi bilan chambarchas bog'lash, o'zining tabiiy qiziquvchanligini qondirish imkonini beradi. Ayniqsa, o'quvchilar qandaydir adabiyotlarni o'quv auditoriyasidan tashqari o'qib chiqish topshirig'ini olishganida ikki qismli kundaliklar foydalidir.

Ikki qismli kundalik uchun talabalar yozilmagan qog'ozning o'rtasidan tik chiziq o'tkazib, uni ikkiga ajratishlari kerak. Kog'ozning chap tomoniga matnning qaysi qismi ularga eng ko'p taassurot qoldirganini qayd etishadi.

Ehtimol, u qandaydir xotirani uyg'otar yoki hayotlarida yuz bergan voqyealarni esga tushirar, yoki shunchaki taajjubga solar. Yoxud ularning qalbida keskin norozilik hissini uyg'otar.

Ung tomonida ular sharh berishlari kerak: ayni shu sitatani yozishga ularni nima majbur etdi? Ularga qanday fikrlar uygotdi? Shu munosabat bilan ularda qanday savol tug'ildi? Qisqasi, matnni o'qirkan, talabalar vaqti-vaqti bilan to'xtashlari va o'zlarining qo'shaloq kundaliklarida shunday belgilar qo'yib borishlari kerak.

III. O'yinlar.

"Zanjir" o'yini. Topshiriqni bajarishga doir ko'rsatma:

- 1) jadvalning **chap** tomonida berilgan savol va topshiriqlar bilan tanishib chiqing;
- 2) jadvalning o'ng tomoniga savolning mazmuniga mos keluvchi javobni topib qo'ying;
- 3) javobingiz bir so'zdan yoki jumladan iborat bo'lishiga e'tibor qarating.

	Savol va topshiriqlar mazmuni	To'g'ri javob (fikir yoki tushuncha)
	o'qituvchilarning ongida muayyan tartibda tizimlashtirilgan g'oya, algoritm, nazariya, qoidalar yig'indisi	
	Ikki yoqlama tavsifga ega bo'lib, o'qituvchi va o'quvchilarning birgalikdagi faoliyati nima deb ataladi?	
	O'quvchilarga nazariy bilimlarni berish asosida ularning bilish qobiliyatlarini o'stirish, ularda amaliy ko'nikma va malakalar, shuningdek, dunyoqarashni shakllantirishga yo'naltirilgan jarayon nima deb ataladi?	
	Dastlabki asos, qoida...	
	Ta'lim mazmunini tanlash bilan bog'liq tamoyillar qanday ataladi?	
	Muayyan ijtimoiy, psixologik va pedagogik talablar bilan bog'liq tamoyillar qanday ataladi?	
	Uquv faoliyatini texnologiyalashtirish asosini ... tashkil etadi.	
	... borliqni idrok etish, o'rganish, mashq qilish va muayyan tajriba asosida xulq-atvor hamda faoliyat ko'nikma, malakalarining mustahkamlanib, mavjud bilimlarning takomillashib, boyib borish jarayoni hisoblanadi	
	Ta'limiy xarakterdagi harakat yoki faoliyatni tashkil etishga nisbatan rag'batni his etish, ehtiyojning yuzaga kelishini ta'minlovchi omil...	
	Predmetli (yozish, rasm chizish, tajribalar o'tkazish); perseptiv (tinglash, fikrlash, kuzatish, sezish) harakatlar	
	Materialni eslab qolish, uni tartibga solish va tashkil etish, shuningdek, tasavvur va fikrlash harakatlari...	

"BLIS" o'yini.

Topshiriqni bajarishga doir ko'rsatma:

- 1) jadvalning chap tomonida berilgan tushunchalar bilan tanishib chiqing;
- 2) dastlab individual ravishda tushunchalarga mos javobni o'ng tomondagi fikrlar orasidan tanlab, tartiblangan raqamini "indiv. javob" ustuniga (masalan "1" raqamli tushunchaga "10" raqamdagi javob) yozib qo'ying;
- 3) so'ngra xuddi shunday tartibda guruhlarda ishini davom ettiring.

tushunchalar	gur uh	gur uh xatosi	ka lit	ind iv. xato	indi v. javob	tushunchalarg a doir fikrlar
1. Ta'lim mazmuni						1. Uquv dasturidagi soatlarga ko'shimchalar
2. Davlat ta'lim standarti						2. o'qituvchilarning qiziqishlariga asoslanish
3. Uquv rejasi						3. "Har qanday bilim aql o'rgata olmaydi"
4. Uquv dasturi						4. "Bilim, bilim va yana bilim"
5. Darslik						5. Aniq o'quv maqsadini hal etadi
6. Uquv qo'llanma						6. Ta'lim mazmuni va sifatiga minimal talablar qo'yiladigan
7. Moddiy ta'lim nazariyasi						7. Muayyan o'quv fani bo'yicha ilmiy bilimlar to'g'risidagi ma'lumotlarni
8. Formal ta'lim nazariyasi						8. Ta'lim muassasasi sertifikati
9. Pragmatizm nazariyasi						9. Muayyan o'quv fani bo'yicha bilim, ko'nikma va
10. Ta'lim mazmunini tabaqalashtirish						10. o'qituvchilarning BKMLarining aniq

"Charxpalak" o'yini.

Qo'llash tartibi:

1. Quyida berilgan xususiyatlar bilan tanishing.
2. O'zingiz to'g'ri deb hisoblagan xususiyatni mos katak ichiga maxsus belgilar(+, -, X, U)dan biri yordamida belgilang.
3. So'ngra soat strelkasi tartibida o'z varaqlaringizni boshqa talabalarniki bilan almashtiring.
4. Javoblar varaqasi o'zingizga yetib kelganidan so'ng, o'qituvchining to'g'ri javobi asosida o'z javoblaringizni tekshiring.

№	Xususiyatlar	Bilimlarni to'liq o'zlashtirish texnologiyasi	Shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalar	Modulli ta'lim texnologiyalari
1.	Bilimlar maktabini tarbiya maktabiga aylantirish			
2.	"A'lo" baholarning soni cheklanmaydi			
3.	Harakatlar rejasi			
4.	Axborotlar bloki			
5.	Uzlashtirish uchun birinchi darsning o'rtasidan uchinchi darsning o'rtasigacha bo'lgan o'quv vaqti kerak			
6.	Qiyin maqsad goyasi			
7.	Atrof-muhitni pedagogizasiyalash			
8.	Ideal tarbiya - bu o'z-o'zini tarbiyalash			
9.	Uqitish mazmuni tugallangan mustaqil komplekslarda aks etadi.			
10	Dozalashtirilgan individual yordam ko'rsatish			
11	"Uy vazifasiz to'liq o'zlashtirish bo'lishi mumkin emas"			
12	Yangi materialni eslab qolishning eng samarali metodi - o'z-o'ziga aytib berish			
13	Katta bloklar g'oyasi			
14	Xato qilish huquqi			
15	To'g'ridan-to'g'ri majbur qilishni bekor qilish			

2.2. Kasb-hunar kolleji o'quvchilarining mustaqil fikrlashini rivojlantirishda ta'limiy innovasiyalardan foydalanishga doir tajriba-sinov ishlari mazmuni va natijalari

Kasb-hunar kolleji o'quvchilarining mustaqil fikrlashini rivojlantirishda ta'limiy innovasiyalardan foydalanishga doir tajriba-sinov ishlari yaxlit tarzda tashkil etilib, dastlab o'qituvchilarning ta'limiy innovasiyalardan xabardorligi, so'ngra o'quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlanganlik darajasi aniqlandi.

Kasb-hunar kolleji o'qituvchilarining ta'limiy innovasiyalardan foydalana olishlarini aniqlashga doir tajriba-sinov ishlari uch -motivasion, kognitiv (bilishga doir) va faoliyatli guruhga mansub mezonlar majmuini ishlab chiqishdan boshlandi:

1. Motivasion guruh mezonlari sifatida quyidagilar belgilab olindi:

1) innovasiyalarni o'zlashtirishga doimiy va barqaror qiziqishning mavjudligi;

2) yangiliklarni amaliyotda qo'llashga doir izlanishli faoliyatga doir ehtiyojning namoyon bo'lishi;

3) kasbiy va yangilikka intilish motivasiyasining uyg'unligi;

4) o'zini innovasion jarayon subyekti sifatida namoyon etish darajasi;

5) o'z-o'zini namoyon etish va o'z-o'zini rivojlantirish ehtiyojlarining takomillashganlik holati;

2. Kognitiv (bilishga doir) guruh mezonlarga quyidagilar kiritildi:

1) pedagogik sohaga doir yangi axborotlar bilan muntazam tanishib borishi;

2) yangi ma'lumotlarning o'zlashtirish, tahlil etish va umumlashtira olish darajasi;

3) nostandart va innovasion fikrlay olishi;

4) yangiliklarni o'zlashtirishga mas'uliyatli munosabatda bo'lishi va doimiy tayyorligi.

3. Faoliyatli mezonlarga esa quyidagilar jamlandi:

1) yangiliklarni amaliyotda qo'llash bo'yicha shaxsiy-kasbiy nuqtai nazarga doir munosabat tavsifi;

2) refleksiv va innovasion ko'nikma va malakalarning rivojlanganligi;

3) yangiliklarni amaliyotda qo'llashga doir faoliyatni oqilona tashkil eta olishi;

4) yangiliklarni joriy etishda samarali faoliyat shakl, metod va vositalarini qo'llay olishi.

So'ngra mazkur mezonlarga mos ravishda quyidagi tajriba-sinov ishlarini tashkil etishga doir materiallar tayyorlandi:

1. So'rovnoma. "Uqituvchilarning ta'limiy innovasiyalar va ulardan foydalana olishga doir nazariy bilimlarga egalik darajalarini aniqlashga doir so'rovnoma" (1-ilova).

"Usituvchilarning ta'limiy innovasiyalar va ulardan foydalana olishga doir nazariy bilimlarga egalik darajalarini aniklashga doir so'rovnoma " o'z ichiga quyidagi yettita savolni qamrab olgan:

1. Innovasiya deganda nimani tushunasiz?

2. Innovasiyalarning qanday turlarini bilasiz?

3. "Ta'limiy innovasiyalar" tushunchasini izohlang.

4. "Modulli innovasiyalar" va "tizimli innovasiyalar" tushunchalarini sharhlang.

5. Ta'limning maqsadi, vazifasi va mazmuni bilan bog'liq qanday ta'limiy innovasiyalarni bilasiz?

6. Ta'limning shakl, metod va vositalari bilan bog'liq innovasiyalarga nimalar kiradi?

7. Ta'lim texnologiyalari bilan bog'liq innovasiyalarni sanang.

2. Test. "Kasb-hunar kolleji o'qituvchilarining ta'limiy innovasiyalarga doir bilimlarini nazorat qilish testi" (2-ilova).

"Kasb-hunar kolleji o'qituvchilarining ta'limiy innovasiyalarga doir

bilimlarini nazorat qilish testi" respondentlardan quyidagi bilimlarga ega bo'lishni talab etadi:

- 1) o'quv-tarbiya jarayonining u yoki bu tarkibiy qismi bilan bogliq pedagogik innovatsiyalar;
- 2) ta'limda qo'llanilish ko'lamiga ko'ra innovatsiyalar tasnifi;
- 3) yangilikning o'zgarish tezligi va yangilik darajasiga ko'ra innovatsiyalar;
- 4) modifikatsiyalashgan innovatsiyalar;
- 5) tuzatish kirituvchi innovatsiyalar;
- 6) o'zgartirish kirituvchi innovatsiyalar;
- 7) integratsiyalashgan innovatsiyalar;
- 8) ta'lim maqsadi va vazifalari bilan bog'liq pedagogik innovatsiyalar;
- 9) ta'lim va tarbiya mazmuni bilan bog'liq innovatsiyalar;
- 10) o'quv jarayonida qo'llaniladigan pedagogik innovatsiyalar;
- 11) o'quv kursida qo'llaniladigan pedagogik innovatsiyalar;
- 12) ta'lim sohasida qo'llaniladigan pedagogik innovatsiyalar;
- 13) ta'limni boshqarish sohasida qo'llaniladigan pedagogik innovatsiyalar;
- 14) ta'lim olganlikni tashxis etish bilan bog'liq pedagogik innovatsiyalar;
- 15) jamoada o'qitishga doir innovatsiyalar;
- 16) guruhli o'qitishga doir innovatsiyalar;
- 17) lokal, ommaviy va global innovatsiyalar;
- 18) alohida ta'lim muassasasiga doir innovatsiyalar;
- 19) aniq kasbiy-tipologik guruh pedagoglariga xos pedagogik innovatsiyalar;
- 20) rejali, tizimli, davriy va tasodifiy innovatsiyalar.

3. Topshiriqlar. "Ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarni o'tkazishni loyihalashga doir texnologik model va xaritalarni ishlab chiqish" (6-ilova); "Interfaol ta'lim metodlaridan foydalanishga doir topshiriqlar".

"Ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarni o'tkazishni loyixalashga doir texnologik model va xaritalarni ishlab chisish" topshirig'ida harbiy pedagoglarga namunaga asoslanib, kirish ma'ruzasi, ma'lumotli ma'ruza, muammoli ma'ruza, anjuman-ma'ruza, maslahatli ma'ruza hamda amaliy mashg'ulotlarning texnologik modeli va xaritasini ishlab chiqish taklif etildi. Buning uchun yuqorida nomlari keltirib o'tilgan ma'ruza turlari va amaliy mashg'ulotlarning o'ziga xosliklarini hisobga olish lozimligi uqtirib o'tildi va metodik ko'rsatmalar takdim etildi.

Ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarni loyihalashga doir qursatmalar: 1. Kirish ma'ruzasi o'quvchilarga o'quv fani to'g'risidagi umumiy tasavvurlarni shakllantirishga xizmat qiladi. Kirish ma'ruzaning texnologik modelida identiv o'quv maqsadi o'quv vazifalariga aylantirilganda, fanning mantiqiy tuzilmasi, fandan o'tkaziladigan oraliq va joriy nazoratni tashkil etish shakllari hamda ularga taqsimlangan ballar haqida ma'lumot berish ko'zda tutilishi lozim.

2. Ma'lumotli ma'ruza eng ko'p qo'llaniladigan ma'ruza shakli bo'lib, o'quvchilarga muammoga doir ma'lumotlarni axboriy-reseptli tarzda taqdim etish imkoniyatini beradi. Ma'lumotli ma'ruzaning texnologik xaritasini tuzish jarayonida tarqatmali va vizual materiallardan foydalanish belgilab qo'yilishi shart.

3. Muammoli ma'ruza fanning aynan muammoli tavsifni o'zida aks ettiruvchi mavzularini o'rganish jarayonida qo'llanilishi maqsadga muvofiq. Muammoli ma'ruzani amalga oshirish uchun muammoli savol, vazifa va topshiriqlar o'quv birligiga mos holda oldindan tuzib qo'yilgan bo'lishi zarur.

4. Anjuman-ma'ruza o'quvchilar tomonidan o'quv materialini izlanishli tarzda o'zlashtirishga yo'naltirilgan bo'lishi; aniq metodikaga asoslanishi va ma'ruza uchun mavzular, ma'ruzachi hamda muhokamaga chiquvchi

kursantlar avvaldan aniqlab olinishi lozim.

5. Maslahatli ma'ruzani tashkil etish uchun tayanch konspektli tarqatma material bir yoki ikki hafta avval talabalarga takdim etilishi, ular material bilan tanishib kelishlari, ma'ruza kursantlarni qiziqtirgan savollar va pedagogning savollarga javob berishi tarzida amalga oshirilishi hisobga olinishi kerak.

6. Amaliy mashg'ulotlarning texnologik modeli va xaritasida interfaol metodlardan foydalanish, o'quvchilarning o'quv faoliyatini juftliklarda va guruhlarda ishlash tarzida tashkil etishga alohida e'tibor qaratish zarur.

"Interfaol talgsh metodlaridan foydalanishga doir topshirislar " har bir o'qituvvchiga tasodifiy tanlov asosida beshtadan (Zta strategiya, 2ta grafik organayzer) interfaol metodni taqdim etish va ularni ham nazariy, ham amaliy jihatlarini yoritib berishni talab etish tarzida amalga oshirildi.

"O'tuvchilarning ta'limiy innovasiyalar va ulardan foydalana olishga doir nazariy bilimlarga egalik darajalarini aniqlashga doir so'rovnoma" asoslovchi va ta'kidlovchi bosqichda respondentlarga tarqatilib, olingan natijalarning quyidagi umumlashgan ko'rinishi hosil qilindi:

metodar va ulardan foydalanadi

№	Nomi	Asoslovchi bosqich (44 iafar reyenondent)			Ta'xidlovchi bosqich (48 nafar resiondent)		
		Io2			5 O2	5	5
1.	Innovasiya deganda nimani tushunasiz?.	47	0	3	76	24	-
2.	Innovasiyalarning qanday turlarini bilasiz?	26	8	6	44	46	10
3.	"Ta'limiy innovasiyalar" tushunchasini izohlang	28	0	2	49	40	11
4.	Modulli innoYeasiyalar" va "tizimli ynnovasiyalar" tushunchalarini sharhlang	22	7	1	46	48	6
5.	Ta'limning maqsadi, vazifasi va mazmuni bilan bog'liq qanday ta'limiy innovasiyalarni bilasiz?	9	1	0	43	45	12
6.	Ta'limning shakl, metod va vositalari bilan bogliq iinovasiyalarga nimalar kiradi?	23	9	8	49	36	15
7.	Ta'lim texnologiyalari bilan bogliq innovasiyalarni sanang.	18	1	1	41	39	20

Ko'rinadiki, ta'kidlovchi bosqichda respondentlarning javoblari asoslovchi bosqichda berilgan javoblardan katta farqqa ega. "Innovasiya deganda nkmanti tushunasiz?" degan savolga asoslovchi bosqichda 23 % o'qituvchi noaniq yoki umuman javob bera olishmagan bo'lsa, ta'kidlovchi bosqichda 76% o'qituvchi aniq va to'g'ri javobni, 24 % o'qituvchi esa, to'g'ri javob bera olganlar. Bunday farq ayniqsa, 4-, 5-, 6- va 7-savollarga berilgan javoblarda ko'zga yashol tashalanadi. Agar asoslovchi tajriba-sinov ishlari jarayonida 19% o'qituvchi innovation salohiyatning tuzilishini to'liq ochib bera olishgan bo'lsa, ta'kidlovchi tajriba-sinov ishlari jarayonida esa, mazkur ko'rsatkich 24%ga ortganligini ko'rish mumkin. Aksincha, mazkur savolga javob byora " olmaganlar yoki javob berishga qiynalgan respondentlar soni 50%dan 12% ga <-' kamaygan.

Tajriba-sinov ishlari jarayonida respondentlarga o'qituvchilarning ta'limiy innovasiyalarga hamda ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarni o'tkazishni loyihalashga doir texnologik model va xaritalarni ishlab chiqish, interfaol ta'lim metodlaridan foydalanishga doir topshiriqlar ham takdim etilib, ularga olingan javoblar quyidagi umumlashgan jadvalda keltirib o'tildi.

**Kasb-hunar kolleji o'qituvchilarning ta'limiy innovasiyalarni
o'zlashtirish va amaliy faoliyatga joriy etishga doir faoliyatlari
samaradorligi ko'rsatkichlari (foiz hisobida)**

№	Topshiriqlar mazmuni	Asoslovchi bosqich (44 nafar respondent)			Ta'kidlovchi bosqich (48 nafar respondent)		
		yuqori	o'rta	quyi	yuqori	o'rta	quyi
1.	Uqituvchilarning ta'limiy innovasiyalarga doir bilimlarini nazorat qilish	33	28	9	3	29	8
2.	Ma'ruza, amaliy mashg'ulotlarni o'tkazishni loyihalashga doir texnologik model va xaritalarni ishlab chiqish	37	30	3	2	28	
3.	Uquv jarayonida interfaol ta'lim metodlaridan foydalanish	46	25	9	2	18	-

Ifodalangan natijalar harbiy pedagoglarning ma'ruza, amaliy mashg'ulotlarni o'tkazishni loyihalashga doir texnologik model va xaritani hamda o'quv jarayonida interfaol metodlardan foydalanish ko'nikmasini to'la egallashganligini ko'rsatib turibdi.

Shuningdek, tajriba-sinov ishlari jarayonida kasb-hunar kolleji o'quvchilarining mustaqil fikrlashini rivojlanganligini aniqlash maqsadida ham tajriba-sinov ishlari tashkil etilib, mazkur jarayonda quyidagi mezonlarga asoslanildi:

1) o'qituvchining tushuntirganlari asosida darslikdan matnni mustaqil o'qib-o'rganish;

2) matndagi eng muhim atamalarni ajratib olish;

3) matndagi ma'lumotlarni tahlil etish;

4) ma'lumotlarni bir-biri bilan taqqoslay olish;

5) matndagi eng asosiy ma'lumotlarni ajrata olish;

6) mavzudagi voqyea-hodisalarga o'z munosabatini bildirib olish;

7) o'zidagi mavjud tasavvurlarni boshqalarniki bilan taqqoslay olish;

8) o'z qarashlarini asoslay olish;

9) mustaqil ravishda yakuniy xulosalar chiqara olish.

Mazkur mezonlar asosida o'quvchilarning mustaqil fikrlashining shakllanganligini aniqlashda uch daraja asos qilib olindi.

1. Yuqori daraja - bilishga bo'lgan ehtiyoj va qiziqishlari o'ta K^{uchli}. Darslikdagi materiallarni mustaqil o'qib o'rganadi. Mavzudagi eng muhim sana va atamalarni ajrata oladi. Mavzudagi voqyea-hodisalarni bema'lol tahlil eta oladi. O'zidagi mavjud tasavvurlar bilan hozir o'rganilayotganlarini taqqoslaydi. Uz fikrini erkin bayon eta oladi.

Boshqalar bilan faol munozaraga kirisha oladi va o'zidagi tasavvurlarni dadillik bilan himoya qiladi. Materiallarni umumlashtirib, bayon eta oladi. O'rganilganlarini amaliyotga tatbiq eta oladi.

2. O'rta daraja - bilishga bo'lgan ehtiyoji mavjud. Darslikdagi materiallarni mustaqil o'qib o'rganadi. Mavzudagi eng muhim atama va sanalarni ajrata oladi, lekin doimo to'g'ri tanlay olmaydi. Mavzudagi voqyea-hodisalarni tahlil eta oladi. O'zidagi mavjud tasavvurlarni boshqalarniki bilan taqqoslay oladi, ba'zi holatlarda biroz qiynaladi. O'z fikrini bayon eta oladi. O'zidagi tasavvurlarni boshqalarniki bilan taqqoslaydi. O'rganganlari asosida materialni bayon etib bera oladi.

3. Quyi daraja - bilishga bo'lgan ehtiyoj va qiziqishlari mavjud, lekin barqaror emas. O'qituvchining yordamida darslikdagi materiallarni mustaqil o'qib-o'rganadi. Mavzudagi eng muhim atama va sanalarni hamma vaqt ham ajrata olmaydi. Mavzudagi voqyea-hodisalarni imkon qadar tahlil qilishga harakat qiladi. O'zidagi mavjud tasavvurlarni boshqalarniki bilan taqqoslashga harakat qiladi. O'z fikrini qiynalmasdan, erkin bayon eta olmaydi. Yozganlariga asoslanib, materialni og'zaki bayon etib bera oladi.

Tajriba-sinov ishlari 1-Toshkent kasb-hunar kolleji hamda Yunus Rajabiy nomidagi Toshkent kasb-hunar kollejlari olib borildi.

Asoslovchi tajriba-sinov ishlari jarayonida ijodiy testdan

foydalanildi. Ta'kidlovchi tajriba-sinov ishlari amalga oshirib bo'linganidan so'ng, mazkur ijodiy test savollari qaytadan o'quvchilarga taqdim etildi. Quyida ijodiy testning tajriba avvali va tajriba so'nggidagi natijalarini keltirib o'tamiz.

O'tkazilgan ijodiy test bizga o'quvchilarning mustaqil fikrlash ko'nikmalarining tajriba avvalidagi holati haqida yorqin taassurot hosil qildi. O'qituvchilar darslarda doimiy ravishda ochiq javobli testlardan foydalanishgan, biroq o'quvchining mustaqil fikrlashini shakllantirishga imkon beruvchi ijodiy testlardan o'z tajribalarida foydalanishmagan. Shuning uchun o'quvchilarning aniq javob topishga o'rganganliklari, ijodiy mazmundagi savol berilganda esa, fikr moslashuvchan bo'lmaganligi sababli zarur javobni bera olmasliklari aniqlandi.

**O'qituvchilarni mustaqil fikrlashining rivojlanganlik darajasini
aniqlashga doir ijodiy test natijalari (tajriba avvalida)**

Savollarning t/r	Respondentlarning umumiy soni - 213 nafar								
	1 -kurs (71 nafar)			2-kurs (73 nafar)			3-kurs (69 nafar)		
	to'g'ri	noto'g'ri	mavjud emas	to'g'ri	noto'g'ri	mavjud emas	to'g'ri	noto'g'ri	mavjud emas
1.	28	40	3	32	27	14	24	30	15
2.	27	34	10	33	9	31	35	26	8
3.	14	19	38	9	24	40	23	38	8

Tajriba-sinov ishlari davomida ijodiy test tuzish va undan foydalanish bo'yicha o'qituvchilarga tushuntirish ishlari olib borildi hamda kasb-hunar fanini o'qitish jarayonida muntazam ravishda ijodiy testlardan foydalanish yo'lga qo'yildi. Butun o'quv yili davomida qo'llanilganligi bois o'quvchilarda ham ijodiy testni ishlashga doir barqaror ko'nikma va malakalar shakllandi. Mazkur fikrning tasdig'ini quyida berilgan o'quvchilarni mustaqil fikrlashining shakllanganlik darajasini aniqlashga doir ijodiy testning tajriba so'nggidagi natijasi to'la tasdiqlaydi.

**O'quvchilarni mustaqil fikrlashining rivojlanganlik darajasini
aniqlashga doir ijodiy test natijalari (tajriba so'nggida)**

Savollarning t/r	Respondentlarning umumiy soni - 213 nafar								
	1-kurs (71 nafar)			2-kurs (73 nafar)			3-kurs (69 nafar)		
	to'g'ri	noto'g'ri	mavjud emas	to'g'ri	noto'g'ri	mavjud emas	to'g'ri	noto'g'ri	mavjud emas
1.	66	6	-	63	5	5	67	1	-
2.	68	1	2	73	-	-	69	-	-
3.	69	-	2	65	3	5	65	2	2

Bundan tashqari, tajriba-sinov ishlari jarayonida tajriba-sinov maydonchalarida nazorat va tajriba guruhlarini tashkil etilib, pedagogik eksperimentni amalga oshirishdan avval va tajriba so'ngida 1-3-kurslar uchun bir xil interfaol metodlar tanlab olinib, har bir kursda o'rganiladigan mavzu doirasidagi topshiriqlar taqdim etildi. Ikkala guruxda sinovni o'tkazishdan avval qo'llaniladigan interfaol metodlar haqida ma'lumot berilib, bajarish tartiblari ko'rsatildi.

O'quvchilarga dastlab erkin yozish taklif etildi. 1-3-kurs o'quvchilari o'zlariga berilgan mavzu doirasida aniq ko'rsatma asosida ishini amalga oshirishdi. O'quvchilar belgilangan vaqtda erkin yozishni tugatganlaridan so'ng, varaqlari yigishtirib olinib, natijalari tahlil etildi. Erkin yozish javoblari quyidagi mezonlar asosida tekshirildi:

- 1) fikrni aniq bayon eta olish;
- 2) fikrni erkin ifodalay olish;
- 3) ko'rib chiqilayotgan jarayonni tahlil eta olish;
- 4) jarayonni baholash;
- 5) jarayonni tushuntirib bera olish;
- 6) fikrni yakunlab, umumlashtira olish.


Mazkur mezon va darajalar asosida o'quvchilarning erkin yozishlari natijalarini tahlil etdik. Natijada ular quyidagicha ko'rinishga ega bo'ldi. Ushbu olib borilgan tajriba-sinov natijalarini tahlil etishda o'quvchilarni mustaqil fikrlashining shakllanganlik darajasini aniqlashga doir erkin yozish natijalari yuzasidan o'quvchilar bilan olib borilgan tajriba-sinov ishlari natijalariga asoslangan holda yuqori, o'rta va past darajadagi o'zlashtirish ko'rsatkichlari aniqlandi. Tajriba so'ngidagi olingan natijalarni quyidagi jadvalda aks ettirdik

O'qituvchilarni mustaqil fikrlashining darajasini aniqlashga doir

erkin yozish natijalari yuzasidan o'zlashtirish ko'rsatkichlari

Guruhlar	O'zlashtirish darajalari		
	Yuqori	*> Urta	Past
Tajriba	130	117	57
Nazorat	89	116	105

Bu natijalar esa diagrammada quyidagicha aks etdi:



Tajriba va nazorat guruhidagi umumiy ko'rsatgichlar diagrammasi

Olingan natijalar kasb-hunar kolleji o'quvchilarining mustaqil fikrlashini rivojlantirishda ta'limiy innovasiyalardan samarali foydalanish maqsadga muvofiqligini ko'rsatdi.

XULOSA

1. "Innovasiya" tushunchasi lotin tilidan olingan bo'lib (t-ga, pouiz-yangi), ya'ni tarjimasi "yangilanish", "o'zlashtirish", "qandaydir yangilikni kiritish", "yangini joriy qilish", "yangilik kiritish". O'z navbatida "yangi" so'zi ushbu tushunchaning asosiy yadrosini tashkil etadi.

2. Pedagogik innovasiyalar keng qamrovli ko'rinishga ega bo'lib, ularning umumtomonidan qabul qilingan aniq tipologiyasi yoki tasnifi mavjud emas. Innovasiyalarni guruhlashtirishga doir yigirmadan ortiq tasnif mavjud, masalan: uzoq muddatli innovasiyalar va qisqa muddatli innovasiyalar, radikal va reformatorli, avtoritar va liberal, inisiativ va administrativ va boshqalar.

3. Mustaqil fikrlash - bu insonning muammoni, uni hal qilish yo'llarini o'zi ko'ra olishi va unga mustaqil javob topa olish qobiliyatidir. Mustaqil fikr tayyor mulohazalarga, boshqalarning fikrlariga qaram bo'lib qolmaydi. U voqyelikni bilishga ijodiy yondashadi va uni o'rganishning yangi yo'llarini izlab topadi. Mustaqil fikrlash fikrning tanqidiyligi bilan chambarchas bog'liq bo'lib, shaxs ijodiy faolligining muhim qirrasini o'zida aks ettiradi.

4. Kasb-hunar kolleji o'quvchilarining mustaqil fikrlashini rivojlantirish aniq ta'limiy sharoitni taqozo etib, auditoriya mashg'ulotlari jarayonida ta'limiy innovasiyalardan keng foydalanishni talab etadi. Kasb-hunar kolleji o'quvchilarining mustaqil fikrlashini rivojlantirishda foydalanish lozim bo'lgan ta'limiy innovasiyalarni uchta katta guruhgabo'lish mumkin: 1) ta'limning interfaol metodlari; 2) grafik organayzerlar; 3) o'yinlar.

Tadqiqot natijalariga asoslanib, kasb-hunar kolleji o'qituvchilari uchun quyidagi tavsiyalarni ishlab chikdik:

- ta'limiy innovasiyalarning kasb-hunar kolleji o'quvchilarining mustaqil fikrlashini rivojlantirishdagi o'рни va ahamiyatini hisobga olish;

- fanlar bo'yicha o'quv dasturi va darsliklardagi mavzularni o'quvchilarning mustaqil fikrlashini shakllantirish imkoniyatlari bilan bog'liqligini ta'minlash;

- o'quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantirishga texnologik yondashuvni tatbiq etish;

- o'quvchilarning bilish faolligini oshirish orqali mustaqil fikrlashini shakllantirishga doir ta'limiy innovasiyalardan o'quv jarayonida samarali va muntazam tarzda foydalanish maqsadga muvofiq.

Tadqiqot muammosini amalda sinab ko'rish maqsadida tajriba sinov tashkil etildi, tajribada o'zgaruvchan miqdorlarni oshib borish usulidan foydalandi. Tajriba sinov 1 – bosqich o'zgaruvchan miqdorlarga ko'ra tashkil etildi, bu bosqichda taqqoslash maqsadida 1 ta tajriba guruhi va 1 ta nazorat guruhi tanlab olindi. Xammasi bo'lib tajriba sinov ishlari uchun 56 – nafar o'qituvchi jalb etildi.

Tajriba sinov o'rganilgan va endi o'rganilayotgan mavzularni farqini aniqlash mavzuga mos dars holatini hosil qilish o'rganilayotgan mavzuning nazariy va amaliy ahamiyatiga doir kirish suhbatini tashkil etildi.

Nazorat ishlari o'qituvchilardan ilg'or tajribani o'rganish muammosi deyarli tuluq o'zlashtirishga olib keldi degan ilmiy faraz asosida o'tkazildi.

Tajriba sinov ishlarining 2 – bosqichi 1 – bosqichidan farqli ravishda o'zgaruvchan miqdorlar doirasidan o'tkazildi. Tajriba sinov har ikkala bosqich natijalari qiyosiy tahlil qilinganda tajriba sinov guruhi ko'rsatkichlari nazorat guruhiga qaraganda yuqori ko'rsatkich berganligi aniqlandi.

Yakuniy bosqich tajriba sinov ishlari davrida o'qituvchilar o'rtasida suhbat, savol – javob, anketa so'rovlari tashkil etildi, ular tomonidan test topshiriqlari bajarildi. Nazorat va Tajriba sinov guruhi natijalarini o'rganishda qo'ydagi ko'rsatkichlar ko'lga kiritildi. Tajriba-sinov uchun tavsiya etilgan metodikaning samaradorligini dalillar bilan isbotlash maqsadida yakuniy bosqich natijalari tahlil qilindi. Yakuniy bosqich tajribasidan keyin tajriba-sinov guruhida sifat ko'rsatkichlarining o'sishi kuzatildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka taxdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. - T.: O'zbekiston, 1997. -326 6.
2. Karimov I.A. Jamiyatimiz mafkurasi xalqni-xalq, millatni-millat qilishga xizmat etsin. - T.: O'zbekiston, 1998. - 30 b.
3. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. - T.: O'zbekiston, 1998. -36 6.
4. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. - T.: Ma'naviyat, 2008.-176 6.
5. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni // «Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori» asarida. - T.: Sharq, 1997. - 20-29 betlar.
6. O'zbekiston Respublikasining Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. // «Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori» asarida. - T.: Sharq, 1997.-31-61 betlar.
7. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. -T.: O'qituvchi, 1992. -1606.
8. Alekseyeva M.Ya. Razvitiye poznavatelnoy deyatelnosti starsheklassnikov v prosesse obucheniya istorii na osnove individualno-diyagnosticheskogo modeli: Diss. ...kand.ped.nauk. - M., 2004./yr://yo1zz.gz1.sh. -213 s.
9. Aleksashkina L.N. Metodologicheskiye osnovi shkolnogo kursa istorii. - Diss. ... dok.ped nauk. - M., 1999. - 330 s.
10. Aleksashkina L.N. Didakticheskiye aspektn prepodavaniya istorii. // j. Kasb-hunar. - 1993. - №3. - S. 11-16.
11. Alimasov V. Falsafa yoxud fikrlash chanqog'i. - T.: «FALSAFA VA HUQUQ» nashriyoti, 2007. - 278 b.
12. Andriyanova V.I., Yuzlikayev F.R., Fayzulina S.X., Annamuratova S.K., Sharipova D.J., Sulaymonov A.P., Djamolova D.A., Abdullayeva Sh.Sh.,
13. Tairova M.T. Pedagogicheskiye osnovm formirovaniya lichnosti uchasdegosya v sredney obsheobrazovatelnoy shkole Respubliki Uzbekistan na sovremennom etape. - T.: Fan., 2005. - s. 167.
14. I.Aronova G.A. Organizasiya samostoyatelnoy rabotn uchapshxsya na

pervom konsentre istoricheskogo obrazovaniya / pr: // gezNua 1 zep1;yet'yeg.gi.

15. Ateyooua M.A., Xap U.8., ANtous V.A., AIyai1ou X.A., Opgxopoua 2.X., VOO^OPOU V., Va'ayeu Ye., Vektigaieu 1.M, ItotaPeua K.M., S?osIGOU M.M., Kotlou M.M., Kaptou V.Ya., Kaptou K.Ya., Mo'ttou A., Iaxagou K.K., Mkksyepko O.U., KigpxIpou ML\[, RoTayeu E.A., 8ap\$tou 8., To'gauyeu V.O., Nauyoagou \J.J., 8ota1ou O.K, UoTyooz'yeu 8. G'a1zaga / M.A. Ateyooua 1a'pp ozgMa. - T.: 0'2'yek1z1:op gaulazipap gshShu jatluaN paz'puog!, 2006. - 496 '.

16. Barkamol avlod - Uzbekiston taraqqiyotining poydevori. - T.: Sharq, 1997.-63 6.

17. Barkamol avlod orzusi. / Tuzuvchilar: Sh.Qurbonov, H.Saidov, R.Ahliddinov. - T.: Sharq, 1999. - 182 b.

18. Jabborov A. Mustaqil fikrlash - shaxs kamolotining muhim omili // Yoshlarning akmeologik qarashlarini shakllantirishda soglom turmush tarzining o'rni: Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari (2008 yil, 30 may). - T.: Falsafa va huquq instituti nashriyoti, 2008. -2616.

19. Jumaniyozova M. Innovation faoliyat - ta'lim sifatining kafolatidir. //^Shikz121a'Nt. - T., 2004 - №6 - B.88-92.

20. Zaynitdinova M. O'quvchilarning mustaqil fikrlash faoliyatlarini rivojlantirish omillari // j. Xalq ta'limi. - 2004. - №1. - B. 132-135.

21. Zufarov Sh.M. Ta'limda innovation jarayonlarni tizimli boshqarish. Uslubiy qo'llanma. - Toshkent: "G'ap ua 1yexpo1o£lua" nashriyoti, 2010.-52 6.

22. Inoyatov U.I. Teoreticheskiye i organizasionno-metodicheskiye osnovm upravleniya i kontrolya kachestva obrazovaniya prof. kolledje: Avtoref.diss... dok.ped.nauk - T.: 2004. - 36 s.

23. Kaldibekova A.S., Xodjayev B.X. o'qituvchilarning bilish faolligini oshirish yo'llari - T.:TDPU, 2006. - 96 b.

24. Karimova V. Psixologiya. - T.: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2002. - 204 b.

25. Karimova V.M., Sunnatova R.I. Mustaqil fikrlash. O'quv qo'llanmasi

bo'yicha mashg'ulotlarni tashkil etish uslubiyoti - T.: Sharq, 2000. -166.

26. Karimova V.M., Sunnatova R.I., Tojiboyeva R.N. Mustaqil fikrlash -T.: Sharq, 2000. - 111 b.

27. 26. Mamadov N.S. Umumiy ta'lim maktablarini innovasion boshqarish: Kasb-hunar fanlari nomzodi. ... diss. -T., 2009. - 152 b.

28. Musayev J. Mustaqil fikrlash salohiyatini rivojlantirish mashqlari. //j. Xalq ta'limi- 2007. - №1. - B. 7-13.

29. Nishonova Z.T. Mustaqil ijodiy fikrlashni shakllantirishning psixologik asoslari: Psixologiya fanlari doktori ... dis. - T., 2005.- 3916.

30. Nishonova Z.T., Taskarayev A. Talaba va o'quvchilarning mustaqil ishi // Ijtimoiy islohotlar: ta'lim va tarbiya konferensiya tezislari - T.: 2005. - 96-97 betlar.

31. Nishonova Z. T. Mustaqil fikrlash - ijodiyot sari qo'yilgan qadam // Xalq ta'limi. - 1998 - №6. - 58-61 betlar.

32. Nishonova Z.T. Mustaqil ijodiy fikrlash. - T.: Fan, 2003. -114 b.

33. Nishonova S. Komil inson tarbiyasi. - T.: Istiqlol, 2003. - 224 b.

34. Nurullayeva Sh.O'. Boshlang'ich sinf ona tili darslarida o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatish metodikasi: Kasb-hunar fanlari nomzodi ... dis. - T., 2007.

35. 30. Nurullayeva Sh.U. Boshlang'ich sinf ona tili darslarida o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatish metodikasi: Kasb-hunar fanlari nomzodi ... dis. avtoref. - T., 2007. - 20 b.

36. 31. Potashnik M.M., Lazarev V.S. Upravleniye razvitiyem shkolm. - M.: Novaya shkola, 1995. — 464 s.

37. 32. Still J., Meridis K., Templ Ch. Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish asoslari. 1-qo'llanma. - T.: TDTU, 2000. - 48 b.

38. Still J., Meridis K., Templ Ch. Tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga yordam beradigan keyingi usullar. 2-qo'llanma. - T.: TDTU, 2000. - 90 b.

39. Still J., Meridis K., Templ Ch. Har bir o'quv fanida o'qish, yozish va munozara. 3-qo'llanma. - T.: TDTU, 2000. - 95 b.

40. Still J., Meridis K., Templ Ch. Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish uchun keyingi strategiyalar. 4-qo'llanma. - T.: TDTU, 2000. -111 b.
41. Still J., Meridis K., Templ Ch. Birgalikda o'qitish. 5-qo'llanma. - T.:TDTU, 2000.-78 6.
42. Still J., Meridis K., Templ Ch. O'ylanuvchan kitobxonni tarbiyalash. 8-qo'llanma - T.: TDTU, 2000. - 80 b.
43. 38. Tolipov O'.Q., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. - T.: Fan, 2006. - 261 b.
44. 39. Tig's'ipou 8.T. Ta'Nt tia55a5alapt 'o5k^ap5a!a lppoual;5Yup gaoNuax. *PJ.Sh\X',\ '1a'Pt.* - T., 2006. - №4. - B.3-6.
45. 40. Turgunov S.T., Maqsudova L.A. Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarishda innovasiyalar. // j. Maktab va hayot. - T., 2009. — №1. - B.7-8.
46. 41. Falsafa: qomusiy lugat (Tuzuvchi va mas'ul muharrir Q.Nazarov). - T.:Sharq, 2004. -4966.
47. Xarlamov I.F. Kak aktivizirovat ucheniye shkolnikov. - Minsk: Narodnaya asveta, 1970.- 150s.
48. Xodjayev B.X. Umumta'lim maktabi o'quvchilarining mustaqil fikrlashini shakllantirishning didaktik asoslari (5-7-sinf tarix darslari misolida): Kasb-hunar fanlari nomzodi. ...diss. - T., 2009. - 172 b.
49. Xodjayev B.X., Zufarov Sh.M. Pedagogik innovatika. Uslubiy qo'llanma. - T.: "G'ap ua lyexpo1o§1lua" nashriyoti, 2010. - 60 b.
50. Xomeriki O.G. Sistemnoye upravleniye innovasionnsh prosessom v obsheobrazovatelnoy shkole: diss. ... kand.ped.nauk. -M., 1996. - 271 s.
51. Xutorskiy A.V. Pedagogicheskaya innovatika. - M.: Akademiya, 2008. -256s.
52. Shonazarov Q. Bo'lajak tarix o'qituvchilarini maktab o'quvchilarining tarixiy tafakkurini shakllantirishga tayyorlash: Kasb-hunar fanlari nomzodi ... dis. - T., 2002.
53. Ensiklopediya pedagogicheskix texnologiy. - Sankt-Peterburg:

KARO, 2005.-367 s.

54. Erkayev A. Tafakkur erkinligi. - T.: Ma'naviyat, 2007. - 160 b.

55. Yaminova S.H. O'quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatini shakllantirishda ssenariy o'qitish usulidan foydalanish: Kasb-hunar fanlari nomzodi ... dis. - T., 1997. - 168 b.

56. O'zbek tshshning izohli lug'ati. - To'rtinchi jild. - T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2008. - 630 b.

57. G'oziyev E.G'. Tafakkur psixologiyasi. - T.: O'qituvchi, 1990. - 185 b.

58. G'oziyev E.G'. Psixologiya (Yosh davrlari psixologiyasi). - T.: O'qituvchi, 1994. - 224 b.

59. Hasanboyev J., Sariboyev H., Niyozov G., Hasanboyeva O., Usmonboyeva M. Kasb-hunar. - T.: Fan, 2006. - 283 b.

60. Hoshimov K., Nishonova S, Hasanov R. Kasb-hunar tarixi. - T.: O'qituvchi, 1996. - 446 b.

61. Husanboyeva Q.P. Adabiy ta'lim jarayonida o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatishning ilmiy-metodik asoslari: Dis. ...ped.fan.dok. - T., 2007. - 262 b.

62. Husanboyeva Q.P. Adabiy ta'lim jarayonida o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatishning ilmiy-metodik asoslari: Avtoref. ...ped.fan.dok. -T., 2007. - 39 b.

63. Husanboyeva Q.P. Adabiy ta'limda mustaqil fikrlashga o'rgatish asoslari. - T.: UzIN kom sentr, 2003. - 101 b.

Abdulla Qodiriy nomidagi Jizzax Davlat kasb-hunar instituti Kasb-hunar-psixologiya fakul'teti kasb-hunar – psixologiya yo`nalishi IV-bosqich talabalasi Bolbekova Nargizaning “O`qituvchi faoliyatida zamonaviy ta'limning o`rni ” nomli bitiruv malakaviy ishiga ilmiy raxbar

XULOSASI

Milliy kasb-hunarmizda "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" qabul qilinguniga qadar, "o'quvchilarning mustaqilligi", "tafakkurning mustaqilligi", "bilish faoliyati mustaqilligi" kabi tushunchalar keng qo'llanilgan. 1997 yildan so'ng Respublikamizda chop etilayotgan pedagogik davriy nashrlar ("Xalq ta'limi", "Uzluksiz ta'lim", "Pedagogik ta'lim", "Maktab va hayot" jurnallari, "Ma'rifat" gazetasi va boshqalar)da mustaqil fikrlash va o'quvchilarning mustaqil fikrlashini shakllantirish masalasiga keng e'tibor qaratildi. O'tgan davr mobaynida mazkur mavzu bilan bogliqlikda bir qancha ilmiy-tadqiqot ishlari ham amalga oshirildi. Kasb-hunar va psixologiya fakulteti 4 kurs talabasi Ismoilova Aziza Ravshanovna mazkur yo'nalishdagi ishlarni o'rganish asosida "Kasb-hunar kolleji o'quvchilarining mustaqil fikrlashini rivojlantirishda ta'limiy innovatsiyalardan foydalanish" mavzusida bitiruv malakaviy ishi yozishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan.

Tadqiqot doirasida quyidagi to'rtta vazifa hal etilgan:

1. Mavzuga oid ilmiy-pedagogik, metodik manbalarni o'rganish asosida ta'limiy innovatsiyalar va ularning o'ziga xosliklarini ochib berish.
2. Ta'limiy innovatsiyalar tasnifini aniqlashtirish.
3. Kasb-hunar kolleji o'quvchilarining mustaqil fikrlashini rivojlantirishda ta'limiy innovatsiyalardan foydalanish yo'llarini tizimlashtirish.
4. Kasb-hunar kolleji o'quvchilarining mustaqil fikrlashini rivojlantirishda ta'limiy innovatsiyalardan foydalanishga doir ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqish.

Bitiruv malakaviy ishi tiimli, ilmiy tilda bayon etilgan. Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati belgilangan talablar asosida rasmiylashtirilgan. Tadqiqot asosida aniq xulosa va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Yuqoridagilarni umumlashtirib aytganda, kasb-hunar va psixologiya fakulteti 4 kurs talabasi N Bolibekovaning " O'qituvchi faoliyatida zamonaviy ta'limning o'rni " mavzusidagi bitiruv malakaviy ishi Davlat attestasiyasi talablariga to'liq javob beradi. Ana shu sababli mazkur bitiruv malakaviy ishini himoyaga tavsiya etaman.

Ilmiy raxbar:

L. To'raqulov

Abdulla Qodiriy nomidagi Jizzax Davlat kasb-hunar instituti Kasb-hunar-psixologiya fakul'teti kasb-hunar – psixologiya yo`nalishi IV-bosqich talabalasi Bolbekova Nargizaning “O`qituvchi faoliyatida zamonaviy ta`limning o`rni ” nomli bitiruv malakaviy ishiga

TAQRIZ

Ta`lim jarayonida egallagan bilim, ko`nikma va malakalar jahon ta`limi andozalariga javob berishini ta`minlash bugungi kunning dolzarb muammolaridan biridir. Ta`lim sohasiga tizimli yondashuv, tizimli tahlil, kompleks yondashuv ta`lim jarayonlarini texnologiyalashtirishga oid talablarning qo`yilishi muqarrardir. O`qituvchilarning kasbiy mahoratini oshirishda ta`lim texnologiyalarning nazariy asoslari bugungi kunning dolzarb muammolaridan biridir.

O`zbekistonda o`qituvchilarning kasbiy mahoratini oshirish borasida ko`plab ishlar amalga oshirildi. Jumladan, o`qituvchilarning kasbiy mahoratini oshirish va xar tomonlama yetuk shaxs sifatida shakllantirishga qaratilgan tanlovlar, ilmiy-amaliy seminarlar shular jumlasidandir.

Talaba Bolbekova Nargizaning bitiruv malakaviy ishi “O`qituvchi faoliyatida zamonaviy ta`limning o`rni ” mavzu asosida tayyorlangan bo`lib, ta`lim tizimida o`qituvchilarning kasbiy mahoratini oshirishda ta`lim texnologiyalarining nazariy asoslari va amalyotdagi ahvoli muammolari haqida ma`lumot berishga harakat qilgan.

Bitiruv malakaviy ishi kirish, ikki bob, tajriba-sinov natijalari, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro`yxatidan tashkil topgan.

Tadqiqotning birinchi bobida o`qituvchilarning kasbiy mahoratini oshirish ta`lim texnologiyalarining nazariy asoslari va amalyotdagi mohiyati, o`qituvchilarning kasbiy mahoratini oshirish ta`lim texnologiyalaridan foydalanishning mavjud ahvoli haqida tushunchalar berilgan. Ishning ikkinchi bobida o`qituvchilarning kasbiy mahoratini oshirish ta`lim texnologiyalaridan foydalanish usul va shakl vositalari bo`yicha tajriba-sinov natijalari taqdim etilgan. Bitiruv malakaviy ish qo`yilgan talablarga to`liq javob beradi deb hisoblayman va himoyaga tavsiya etaman.

Taqrizchi:

**Maktabgacha ta`lim kafedrasi
mudiri dots. R.Abdurasulov**

Abdulla Qodiriy nomidagi Jizzax Davlat kasb-hunar instituti Kasb-hunar-psixologiya fakul'teti kasb-hunar – psixologiya yo`nalishi IV-bosqich talabalasi Bolbekova Nargizaning “O`qituvchi faoliyatida zamonaviy ta`limning o`rni ” nomli bitiruv malakaviy ishiga

TAQRIZ

Davlatimiz mustaqillikni qo`lga kiritgan dastlabki kunlaridanoq yuqori malakali kadrlarning tabgi avlodini shakllantirishga yo`nlatirilgan davlat siyosatini yuritib kelmoqda. Bu yo`nalishda bir qancha ishlar amalga oshirilgan. Xususan, o`qituvchilarning kasbiy mahoratini oshirish ta`lim texnologiyalarining nazariy asoslari va amalyotdagi axvolini yaxshilash bo`yicha bir qancha beradi.

O`zbekistonda o`qituvchilarning kasbiy mahoratini oshirish borasida ko`plab ishlar amalga oshirildi. Jumladan, o`qituvchilarning kasbiy mahoratini oshirish va xar tomonlama yetuk shaxs sifatida shakllantirishga qaratilgan tanlovlar, ilmiy-amaliy seminarlar shular jumlasidandir.

Talaba Bolbekova Nargizaning bitiruv malakaviy ishi “O`qituvchi faoliyatida zamonaviy ta`limning o`rni ” mavzu asosida tayyorlangan bo`lib, ta`lim tizimida o`qituvchilarning kasbiy mahoratini oshirishda ta`lim texnologiyalarining nazariy asoslari va amalyotdagi ahvoli muammolari haqida ma`lumot berishga harakat qilgan. Ta`lim jarayonida egallagan bilim, ko`nikma va malakalar jahon ta`limi andozalariga javob berishini ta`minlash bugungi kunning dolzarb muammolaridan biridir .

Bitiruv malakaviy ish qo`yilgan talablarga to`liq javob beradi deb hisoblayman va himoyaga tavsiya etaman.

Taqrizchi:

**Jizzax yengil sanoat kolleji
direktori Bakiyev I.**

**O'qituvchilarning ta'limiy innovasiyalar va ulardan foydalana olishga
doir nazariy bilimlarga egalik darajalarini aniqlashga
doir so'rovnoma**

1. Innovasiya deganda nimani tushunasiz? _____

2. Innovasiyalarning qanday turlarini bilasiz?

3. "Ta'limiy innovasiyalar" tushunchasini izohlang.

4. "Modulli innovasiyalar" va "tizimli innovasiyalar" tushuncha-
larini sharhlang. _____

5. Ta'limning maqsadi, vazifasi va mazmuni bilan bog'liq qanday
ta'limiy innovasiyalarni bilasiz? _____

6. Ta'limning shakl, metod va vositalari bilan bog'liq
innovasiyalarga nimalar kiradi? _____

7. Ta'lim texnologiyalari bilan bog'liq innovasiyalarni sanang.